



## MAMLAKATIMIZ TURIZM SALOHİYATINI OSHIRISH, SOHAGA SARMOYADORLARNI JALB QILISHDA NATIJADORLIK MUHIM

**Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 9-aprel kuni hududlarning turizm salohiyatini oshirish, xorijiy investitsiya loyihalarini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.**

So‘nggi yillarda mamlakatimizning turizm eksperti 1,6 karra oshib, 3 milliard 500 million dollarga yetdi, bu sohada 2 mingdan ortiq yangi tadbirkor ish boshladi. O‘tgan yili xorijiy sayyohlar tashrif ilk bor 10 milliondan oshdi.

Hududlarda turizm va servis infratuzilmasi juda tez rivojlanayotgan. Xususan, o‘tgan 8-yilda 6 milliard 500 million dollar sarmoya kiritilib, 130 mingta mehmon o‘rni ochilgan.

Bugungi kunda 20 ta turizm qishlog‘i faoliyat yuritayapti. Parkent tumanining “Oltin bel” cho‘qqisida xalqaro darajadagi yangi tog‘-chang‘i zonasi barpo etilayotgan.

Aslida, yurtimiz tarixi, madaniyati va tabiatiga asoslanib, sayyohlarni yana 2-3 karra ko‘paytirish mumkin. Lekin ayrim hududlarda yo‘l va transport noqulayligi, ko‘ngilochar joylar va qiziqarli dasturlar yetishmasligi kabi kamchiliklar bor.

Shu bois, yig‘ilishda joylardagi imkoniyatlarni yuzaga chiqarib, turizm yo‘nalishlarini ko‘paytirish, sayyohlarga sharoitlarni kengaytirish chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Masalan, Sariosiyo tumanining asosiy qismi tog‘lardan iborat bo‘lib, qishki turizm uchun katta salohiyat mavjud. U yerda dor yo‘li, mehmonxonalar va savdo-servis xizmatlari sohasida 200 million dollarlik loyihalarni amalga oshirish mumkin. Chortoq tumani ham go‘zal tabiiat, shifobaxsh suvi bilan mashhur.

Mutasaddirlarga shu kabi 36 ta tuman va shaharni etno, gastronomik, tibbiy, ekstremal, madaniy-tarixiy, ziyorat, qishki va agroturizm asosida rivojlantirish bo‘yicha dastur ishlab chiqish topshirildi.

Bugungi kunda “BBC”, “Euronews” kabi nufuzli telekanallarda, 20 dan ortiq xalqaro ko‘rgazmalarda O‘zbekistonga sayohat keng tarqib qilinmoqda. Viza tartiblari soddalashtirilayotgan, zamonaviy samolyotlar olib kelinyapti.

Bu imkoniyatlardan foydalanib, sohadagi salohiyatli bozorlardan sayyohlarni jalb qilish, to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Ayni paytda Milliy turizm yagona platformasi ishlab chiqilmoqda. Endi unga elektron viza berish, chipta olish jarayonlari ham ulanadi. Shuningdek, barcha tarixiy obidalariga kirish imkonini beradigan yagona turistik karta joriy qilinadi.

So‘nggi yillarda ichki turizmga e‘tibor kuchaygani uchun mahalliy sayyohlar soni 23 millionga yetdi. Lekin

haligacha boshqa viloyatlarga sayohatga bormaganlar ko‘p topiladi.

Shu bois, endi har o‘nying bir shanba-yakshanbasi “oila va jamoa bilan sayohatga chiqish kuni”, deb e‘lon qilinadi. Yoshlar o‘rtasidagi musobaqa g‘oliblariga O‘zbekiston bo‘ylab sayohat yo‘lanmasi sovg‘a qilinadi.

Sohadagi yana bir yo‘nalish — madaniy meros obyektlari. Oxirgi 4 yilda 327 ta shunday majmua restavratsiya va konservatsiya qilindi. Hozir yana 485 ta obyekt ta‘mirlanib.

Bu ishlarga xususiy sektorni jalb etib, biznes loyiha qilish mumkinligi aytiladi. Madaniy meros obyektlarini ijaraga berishni takomillashtirish, ularga tushumlarni raqamlashtirish vazifalari ko‘rsatib o‘tiladi.

Turizm bo‘yicha oliy ta‘lim muddati 4 yildan 3 yilga kamaytirilib, dual tizimga o‘tkazildi. Endi buning davomi sifatida, talabalarni amaliyot va ishlash uchun xorijga yuborish yaxshi samara beradi.

Umuman, bunday imkoniyatlar evaziga bu yil 15 million turistni jalb qilish va eksportni 4 milliard dollarga yetkazish mumkinligi qayd etildi.

Yig‘ilish kun tartibidagi ikkinchi masala — xorijiy davlatlar bilan hamkorlikdagi investitsiyaviy loyihalar tahlili bo‘ldi.

Bu yil birinchi chorakning o‘zida Birlashgan Arab Amirliklari, Malayziya, Kuvayt va Fransiya tashriflar chog‘ida 39 milliard dollarlik 178 ta loyiha bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Yaqinda Samarqandda o‘tgan sammitda Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyoga 12 milliard yevro ajratishini ma‘lum qildi.

Mamlakatimizda 2025-yilda 42 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etish ko‘zda tutilgan. 81 ta yirik, 8 mingdan ortiq o‘rta va kichik loyiha amalga oshirilishi, donor tashkilotlardan 2 milliard dollar grant hamda banklar tomonidan 6 milliard dollar jalb qilinishi belgilangan.

Yig‘ilishda bu boradagi imkoniyatlar hududlar va hamkor mamlakatlar kesimida tahlil qilindi.

Masalan, ilgari investor bormagan, temir yo‘l yoki magistral yo‘l ham o‘tmagan Oltinsoy tumanida 100 million dollarlik 3 ta yirik loyiha amalga oshirilmog‘da. Yoki Qo‘shrabotda granit tosh qazib olish va qayta ishlash bo‘yicha 75 million dollarlik 2 ta yangi loyiha boshlangan. IZlansa, bunday imkoniyatlar har bir hududda bor.

O‘tgan oyda Londonda “O‘zbekiston investorlari kuni” tashkil etildi. Shu yilning o‘zida 2 milliard 770 million dollar jalb qilish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Bunday tadbirlarni Nyu-York, Singapur, Gonkong, Dubay, Shanxay, Tokio, Istanbul kabi biznes markazlarida ham tashkil etish zarurligi qayd etildi.

Xususiy lashtirishga oid katta dastur ishlab chiqilmoqda. Unga ko‘ra, 49 ta korxonadagi davlat ulushi xalqaro bozorda sotilishi, 15 ta yirik davlat korxonasi yevrobond chiqarishi mo‘ljallangan. Bular ham xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun ulkan imkoniyat.

Shu oyda Jizzaxda, iyunda esa Toshkent shahrida xalqaro investitsiya forumlari o‘tkaziladi. Ularda investorlarga taqdim qilinadigan loyihalar jamlanmasini puxta shakllantirish zarur.

Xalqaro moliya institutlari bilan yangicha tizimda ishlamayotgan tufayli yil boshidan buyon 706 million dollar o‘zlashtirildi. Issiqlik stansiyalari, hududiy elektr tarmoqlari, qishloq xo‘jaligi, avtoyo‘l va temir yo‘l tizimlaridagi loyihalar ancha oldinga siljidi.

Lekin vaqtda bajarilmagan yoki asossiz cho‘zilyotgan holatlar ham bor. Bundan keyin tayyor loyihaga o‘zgartirish kiritish faqat Hukumat doirasida ko‘rib chiqilishi, qo‘shimcha ishlar loyiha tugagach, tejalgan mablag‘ hisobidan bajarilishi ta‘kidlab o‘tiladi.

Hozirda xalqaro moliya tashkilotlari bilan energetika, transport, agrar, kommunal va ijtimoiy sohalarda 20 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilmog‘da. Chet elik sheriklar mamlakatimizdagi islohotlarni qo‘llab-quvvatlayapti.

Jumladan, o‘tgan oylarda Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Fransiya rivojlanish agentligi, Islom taraqqiyot bankining O‘zbekistondagi vakillari Qoraqalpog‘iston, Andijon, Jizzax, Surxondaryo va Sirdaryoga borib, 200 ga yaqin tadbirkor bilan ishladi. Qisqa vaqt ichida 1,5 milliard dollarlik loyihalarni moliylashtirishga kelishildi.

Bosh vazir o‘rinbosariga bu amaliyotni tizimga aylantirib, boshqa hududlarda ham yana kamida 3 milliard dollarlik loyihalar shakllantirish vazifasi qo‘yildi.

Yig‘ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan vazirlar, hokimlar, xorijiy davlatlardagi elchilar va sohadagi tadbirkorlarning takliflari eshitildi.

O‘ZA

## SHAHARSOZLIK BO‘YICHA ZAMONAVIY RENOVATSIYA LOYIHALARIDA AHOLI MANFAATLARI HISOBGA OLINADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 9-aprel kuni shaharsozlik renovatsiyasining huquqiy asoslarini belgilash bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.**

So‘nggi sakkiz yilda mamlakatimiz aholisi 6 millionga ko‘paydi. Shu davrda yarim millionga yaqin xonadonlar barpo etildi. Jumladan, o‘tgan yili 100 ming xonadondan iborat ko‘p qavatli uy qurilgan bo‘lsa, bu yil yanada ko‘p — 130 mingdan ortiq xonadon reja qilingan.

Yaqin yillarda aholimiz soni 40 million nafarga yetishi kutilmoqda. Bunday o‘shishda yiliga 140-150 ming xonadonga talab paydo bo‘ladi. Bu har yili qo‘shimcha 2 ming gektar yer kerak, degani. Lekin yer maydonlari ham cheklangan.

Bunday holatda renovatsiya dasturi qo‘l keladi. Masalan, respublikada 17 mingta 2-3 qavatli eski uylar bor. Ulardagi sharoit, muhit bugungi zamonga munosib emas. Elektr, gaz, suv va boshqa infratuzilmalar eskirgan, ko‘plarida oqova tarmog‘i ham yo‘q.

Shularning o‘mida zamonaviy uylar qurilsa, hozirgidan 3 barobar ko‘p aholi joylashadi. Asosiy, xonadonlarda yangi kommunikatsiya, issiq va sovuq suv, oqova tarmog‘i bo‘ladi. Odamlar ozoda, shinam va fayzli sharoitlarda yashaydi. Bu orqali minglab oilalarning turmush darajasi o‘sadi, muhimi, ular ushbu sharoitlarni ilk bor o‘zlari o‘tib-ulg‘aygan joyda his etishni boshlaydi.

Yana bir muhim tomoni — energiya tejamlorlik masalasi. Turar joylar yaxlit bo‘lsa, infratuzilma tarmoqlari, energiya kam sarflanadi.

Hozirgacha bu borada yagona hujjat yo‘q edi. Shu bois, xorijiy tajriba asosida, “Shaharsozlik renovatsiyasi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Taqdimotda renovatsiya tizimining huquqiy, moliyaviy va tashkiliy tomonlari ko‘rib chiqildi.

Bunday dasturlar 3 bosqichda amalga oshirilishi ko‘zda tutilmoqda. Avval, shahar va tumanlarda renovatsiyaga mos hudud tanlanib, loyiha ishlab chiqiladi. Mulkdorlarga yangi uy yoki kompensatsiyalar taklif qilinadi. Barcha mulkdorlar bilan kelishuvlar yaklama-yakka, notarial tartibda tasdiqlanadi. Loyihalar uchun har bir hududda renovatsiya jang‘armalari tashkil etiladi.

Ikkinchi bosqichda renovatsiya dasturi hududiy va respublika kengashlari tomonidan ko‘rib chiqilib, qurilish tashkiloti aniqlanadi. Uchinchi bosqichda uy-joylar qurilib, foydalanishga topshiriladi.

Renovatsiyaga tushgan hududning iqtisodiy salohiyati ham oshadi. Yangi uylarning 1-2-qavatlarida savdo, xizmat ko‘rsatish va kichik ishlab chiqarishlar bo‘ladi. Shuningdek, bu tizim orqali 20 ming gektar yer tejalishi hisob-kitob qilingan.

Xususan, birinchi bosqichda renovatsiya asosida 20 ming xonadon qurilishi mo‘ljallangan.

Davlatimiz rahbari bunday loyihalarni, avvalo, u yerda yashovchilarning manfaatlarini hisobga olgan holda, tizimli va adolatli amalga oshirish zarurligini ta‘kidladi. Shu maqsadda mutasaddilar, tuman hokimlari va ularning tegishli o‘rinbosarlari renovatsiya tartib-qoidalari va ishini to‘g‘ri tashkil qilish choralari bo‘yicha qo‘shimcha o‘qitilishi aytiladi.

Renovatsiya hududlarini infratuzilma bilan ta‘minlash, developer va quruvchi tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish masalalariga ham to‘xtalib o‘tiladi.

O‘ZA

## TOSHKENT DEKLARATSIYASI BARQAROR KELAJAKKA YO‘G‘RILGAN TASHABBUSLAR MAJMU'I

**Parlamentlararo Ittifoqning poytaxtimizda bo‘lib o‘tgan 150-yubiley Assambleyasi sayorimizdagi global ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik muammolarga oqilona yechim topish, insoniyat osoyishta va farovon yashashi uchun munosib sharoit yaratish, tinchlik va taraqqiyotni ta‘minlashda parlamentlararo aloqalar va o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash borasida muhim muloqot maydoniga aylandi.**

Davomi 2-beta

## Yangi O‘zbekiston ruhi

### QADIM TURKISTONDA JAM BO‘LDI DUNYO

O‘ZBEKISTON GLOBAL MULOQOT VA TAJRIBA ALMASHISH MAYDONIGA AYLANDI



Ha, ahli olam nigohi bir necha kun davomida ko‘hna Turon Turkiston zaminidagi ulug‘ yurt — O‘zbekistonga qadaldi. Yer yuzi zilzila giribodidagi daraxt kabi qaltirab, titrab turgan tahlikali zamonda jahondagi 140 ga yaqin davlatdan kelgan siyosatchilar, parlament a‘zolari, xalqaro tashkilotlar vakillari o‘zbek tuprog‘ida bir davra, bir dasturxon atrofida o‘tirib, insoniyat taqdiriga tahdid solayotgan xavf-xatarlarning oldini olish, davlatlar, millatlar o‘rtasidagi bordi-keldilarni kuchaytirish choralari haqida fikrlashdi, muhim qarorlar qabul qildi.

Zotan, bugun dunyo yangicha qoidalar asosida yashamoqda. Kechqurun uyquga ketib, erta tongda sizni nimalar kutayotganini, katta-katta minbarlardan yana qanday bayonotlar, da‘volar yangrashini taxmin ham, tasavvur ham qila olmaydiz. Rossiya va Ukraina, Isroil va Falastin o‘rtasidagi mojaro, G‘azoda yosh bolalar va ayollar o‘limining oxiri ko‘rinmayotgani, Suriyadagi vaziyat, Eron — AQSH munosabatlaridagi keskinlik, Livandagi notinchlik, yakkalanib qolgan

Afg‘oniston, qudratli davlatlar o‘rtasida boshlangan va avj olayotgan “boj jangi”, AQSH va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi sovuqlik, BMTga ishonchsizlik, xalqaro qonun-qoidalarni mensimaslik va yadroviy tahdidlar fonida O‘zbekistonda ikkita yirik xalqaro anjuman o‘tganini chin ma‘noda e‘tiborga loyiq bo‘ldi. Jahon ahlining O‘zbekistonga e‘tibor, ehtirom va mehru-muhabbatini yangi pog‘onalarga olib chiqdi.

Davomi 2-beta



## TO‘RT MUHIM VOQELIKDAN QUVVATLANAYOTGAN JAHON

So‘nggi ikki haftada Markaziy Osiyo hayoti juda katta tarixiy voqealarga boy bo‘ldi. Ana shu yirik hodisa markazida yangi O‘zbekiston turgani, mamlakatimizdagi tub islohotlar sabab Markaziy Osiyo ruhi paydo bo‘lgani alohida e‘tiborga molik voqeelikdir. Ayni paytda ushbu tarixiy voqealarni tahlil qilish, uning zamiridagi hayotiy haqiqatlarni anglash zarur. Zero, yirik masshtabdagi bunday o‘zgarishlar bizga barqaror va farovon hayotdan mujda bermoqda. Bunday jamiyatni faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslar yaratadi. Bugun esa biz Markaziy Osiyo, xususan, yurtimiz kelajagini belgilab beradigan tarixiy voqealarga birma-bir to‘xtalib, imkon qadar uning mohiyatini anglashga urinsak.

### AHILLIK BARAKA KELTIRAR

**BIRINCHI VOQELIK.** Xo‘jand sammitida Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi chegara bilan bog‘liq asiy masala to‘la-to‘kis hal etildi.

Bitta gap bilan ifoda etilgan ushbu voqea zamirida so‘nggi yetti-sakkiz yildagi izchil islohotlar, yangi O‘zbekistonning o‘zaro ishonch va do‘stona hamkorlikka asoslangan tashqi siyosati yotibdi. Biz dunyoga, avvalo qo‘shnilarimizga mehr darvozasi keng ochdik. Hazrat Bobur Mirzoning: “Kim neni izlasa, topqay begunon”, degan hikmati hayotiy haqiqat ekani yana

bir bor tasdig‘ini topdi. Dunyo ham bizga quchog‘ini ochdi. O‘tgan vaqt mobaynida Markaziy Osiyo xalqlari bir-birini tushunishni, masalan qo‘li biziz qilib emas, ko‘ksimizga qo‘yib, ajdodlarimiz kabi kengashib hal etish zarur ekanini angladik.

Hayot hikmatlarga to‘la. Yaxshi niyat bilan yerga qadalgan urug‘ yillar o‘tib ulkan daraxtga aylanadi. Uning soyasidan bahra olasiz, mevasini olingiz, yaqinlar bilan baham ko‘rasiz. Ammo doim ham osmonga suyanch bo‘lgan daraxt kaftingizga sig‘adigan mitti urug‘ bo‘lgani haqida o‘ylab ko‘rmasiz.

Davomi 3-beta

# QADIM TURKISTONDA JAM BO'LDI DUNYO

## O'ZBEKISTON GLOBAL MULOQOT VA TAJSRIBA ALMASHISH MAYDONIGA AYLANDI

### Yangi O'zbekiston ruhi



Markaziy Osiyo mintaqasida, MDH hududida ham ilk bor bo'lib o'tdi.

"Bunday yuksak ishonch va ehtiromni biz yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar, parlamentarizm va

O'zbekiston Osiyo mintaqasida eng yuqori ko'rsatkichga erishdi, shuningdek, so'nggi 30 yil ichida ayol deputatlar soni o'sishi bo'yicha ham yetakchi bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston parlament yo'nalishida global ahamiyatga molik qator xalqaro tashabbuslarni ilgari surib kelayotgani bunga yorqin misol. Xususan, BMT Bosh Assambleyasining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallatirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risidagi rezolyutsiyasi qabul qilinishi bunga dalil.

Parlamentlararo Ittifoqning mazkur sessiyasida shu kunning eng dolzarb masala va muammolari tahlil etildi. Anjuman davomida jahonning nufuzli parlament delegatsiyalari tomonidan aholini ijtimoiy himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquqlari himoyasi, gender tenglikka erishish, ilm-fan, texnologiyalarni rivojlantirish hamda dolzarb mavzular muhokama qilindi.

Anjuman doirasida qariyb 80 ta tadbir o'tkazildi. Ularning har birida bugungi kun uchun dolzarb bo'lgan mintaqaviy va xalqaro masalalar ko'rib chiqildi. Masharavat nafaqat O'zbekiston, Markaziy Osiyo, Yevropa, balki umumjahonning dolzarb masala va muammolari yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

Xalqaro Assambleya O'zbekiston parlamenti tashabbusi bilan "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun muloqot qilish" mavzusida

o'tkazilgani chuqur ramziy ma'noga ega. Bugungi kunda yangi O'zbekiston ortga qaymas demokratik islohotlar va pragmatik tashqi siyosat yo'lidan dadil qadam tashlab, dunyo hamjamiyati bilan to'g'ridan to'g'ri, ochiq va jadal muloqot qilmoqda.

Jahonning turli mintaqalaridagi nizolar global va mintaqaviy tinchlik va xavfsizlikka jiddiy tahdid solyapti. Parlamentlararo Ittifoq Assambleyasi qatnashchilarining ta'kidlashicha, so'nggi yillarda dunyoning turli mintaqalarida qurolli to'qnashuvlar, ekologik va texnologik fojialar, iqtisodiy inqirozlar, "savdo urushlari", terrorizm va ekstremizm tahdidlari tobora kuchayib bormoqda.

Bunday murakkab sharoitda jahonda tinchlikni saqlash, ijtimoiy taraqqiyot va adolatni ta'minlashda parlamentlar ishtiroki va ta'sirini oshirishni zamonning o'zi talab etmoqda. Ayrim davlatlarda so'nggi yillarda urushga qarshi chiqish, otishmalarni to'xtatish, tinchlik va yarashish uchun kurashish, ming afuski, ochiq ta'qib ostiga olinyapti. Bunday hollarga befarq qarash mumkin emas.

O'zbekiston parlamentariylarining bu sohadagi barcha taklif va tashabbuslari Parlamentlararo Ittifoqning strategik maqsadlariga to'la mos ekani anjuman qatnashchilari tomonidan qayd etilgan, shu bilan birga, yondashuvlarimiz tarixiy assambleya yakunlari bo'yicha qabul qilingan Toshkent deklaratsiyasida ham o'z ifodasini topgan quvonarlidir, albatta.

Davlatimiz rahbari ma'rufasida dunyoda yuz berayotgan voqea-hudusalarni real, xolisona tahlil qilgani, o'rtaga tashlagan muhim va dolzarb takliflari qatori yig'ilish ishtirokchilariga mamlakatimizda parlament

institutini rivojlantirish bo'yicha qilingan ishlar haqida batafsil ma'lumot berib o'tgani, ayniqsa, e'tibori.

So'nggi yillarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari 5 tadan 12 taga, Senat vakolatlari esa 14 tadan 18 taga oshirildi. Prezidentning qator vakolatlari qonun chiqaruvchi hokimiyatga o'tkazildi. Milliy parlamentimizda xotin-qizlar ulushi bugun 38 foizga yetdi. 2021-yili Oliy Majlis palatalari huzurida ilk bor yoshlar parlamentlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bunday ma'lumotlarni uchrashuv ishtirokchilari iliq kutib oldi. Mamlakatimiz vakillari Osiyo Parlamentlari Assambleyasi, Markaziy Osiyo parlamentlari forumi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Parlament Assambleyasi, MDH Parlament Assambleyasi kabi tuzilmalarda faol ishtirok etayotgani, bir so'z bilan aytganda, yangi O'zbekiston katta dunyoga ochiq, har qanday do'stona muloqotlarga tayyor ekani Prezidentimiz tomonidan alohida qayd etildi.

Oxirgi yillarda yurtimizda BMT institutlari va Parlamentlararo Ittifoq bilan hamkorlikda Osiyo xotin-qizlar forumi va Jahon parlamentlari ayol rahbarlari sammiti muvaffaqiyatli o'tkazilgani ham O'zbekistonda xotin-qizlarning o'rni alohida ekaniga yorqin dalildir.

O'zbekiston Prezidentining Assambleyada so'zlagan nutqidagi yana bir muhim jihat un qo'shimiz Afg'oniston masalasidir. Men davlatimiz rahbarining "Bizga qo'shni bo'lgan Afg'oniston haqida to'xtalib o'tmaslik mumkin emas. Ushbu mamlakatning xalqaro maydonda yakkalanib qolishiga yo'l qo'ymaslik, amaldagi hukumat bilan konstruktiv muloqot o'rnatish, Afg'onistonga Markaziy Osiyo mintaqasining ajralmas qismi va yangi imkoniyatlar makoni sifatida qarash lozim, deb hisoblaymiz. Bu borada parlamentlarning ko'magiga ishonamiz", degan so'zlarini tinglaganda, taniqli shoir va mutafakkir, siyosatchi Muhammad Iqbolning bundan 120-yililari burun aytib keltgan quyidagi so'zlarini esladim beixtiyor: "Osiyoda bir daraxt bor. U yashnasa, butun Osiyo gurkirab yashnaydi, agar qovjirab qolsa, uning bu holati butun Osiyoga ta'sir qiladi. Bilingki, bu daraxt Afg'onistondir". Ha, yon qo'shimiz Afg'oniston gullab-yashnashi kerak.

Albatta, dunyodagi hech bir davlat va jamiyat faqat ko'plab qonun yoki qarorlar qabul qilish bilan rivojlanmaydi. Barchamiz bu yo'lda birlashib, qonun ijodkorligi ruhini kuchaytirib, bor bilim va tajribamizni yagona maqsad sari safarbar etish orqali umumiy maqsadimizga erisha olamiz deb qayd etdi anjuman qatnashchilari.

Assambleya doirasida o'tgan turli tadbir va debatlarida parlamentlar oldida turgan eng asosiy vazifalar yuzasidan atroflicha fikr almashildi hamda istiqbolli rejalar belgilab olindi. Qabul qilingan barcha qarorlar esa ko'p qirrali va uzoq muddatli hamkorligimiz tarixida yangi sahifa ochishiga shubha yo'q.

Parlamentlararo Ittifoqning Toshkentda o'tgan 150-yubiley Assambleyasi dunyoda ijtimoiy integratsiya, munosib mehnat, kambag'allikni qisqartirish va aholining qaror qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish kabi ko'plab shu kunning dolzarb masalalariga doir tarixiy qarorlari bilan nafaqat maxsus qabul qilingan Toshkent deklaratsiyasida, balki Markaziy Osiyo va jahon parlamentariysi tarixida o'zining munosib o'rini egallaydi.

**Qadim Turkistonda jam bo'ldi dunyo, Dunyoda nur sochgan bo' qutlug' ziyo...**



Abdusaid KO'CHIMOV, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zosi

#### Boshlanishi 1-betda

Birinchisi, 3-4-aprel kunlari qadimiy Samarqand zaminida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammitidir. "Kelajakka sarmoyalar" shiori ostida o'tgan ushbu tadbir dunyo xalqaro ommaviy axborot vositalarida keng yoritildi. Anjuman eng muhim muammolar — davlatlar, xalqlar, mintaqalar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga, o'zaro mahkam iqtisodiy hamjihatlikka, ijtimoiy, madaniy taraqqiyotga bag'ishlandi.

Tadbirda Yevropa Ittifoqi rahbarlari Antoniu Koshta va Ursula fon der Lyayen, Xozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, shuningdek, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso hamda Yevropa investitsiya banki rahbariyati ishtirok etdi.

Yig'ilishda delegatsiyalar rahbarlari ikki mintaqa o'rtasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirish bo'yicha takliflar bildirdi. Sun'iy intellekt, "katta ma'lumotlar", raqamlashtirish va kosmik tadqiqotlar sohasida ilmiy-texnologik almashinuv bo'yicha qo'shma dastur ishlab chiqish tashabbusi ilgari surildi. Markaziy Osiyo davlatlari bilan Yevropa Ittifoqining birinchi sammitida terrorizm, ekstremizm, radikalizm, kibernetik jang, narkotrafik va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda hamkorlik masalalari ham muhokama qilindi.

Nufuzli anjumanda yevropalik hamkorlarning terrorizmga qarshi kurash masalalari bo'yicha muloqotni yo'lga qo'yish taklifi yakkalik bilan ko'lab qabul qilindi. Yevropa Ittifoqining mintaqa xavfsizligiga sodiqligini ifodalaydigan "BOMCA" va "CADAP" dasturlari doirasidagi amaliy hamkorlikni, shuningdek, Afg'onistonda tinch taraqqiyotni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatlashuvlarni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Birinchi sammit yakunida ikki mintaqa o'rtasida strategik sheriklik o'rnatishini nazarda

tutuvchi qo'shma deklaratsiya va o'ta muhim mineral resurslar sohasida hamkorlik to'g'risida deklaratsiya qabul qilindi.

Samarqand masharati yana bir bor O'zbekistonning dunyo siyosatida tutayotgan o'rni, O'zbekiston timsolida mintaqa mamlakatlari xalqlari, rahbarlari yakdilligini, bu mintaqa dunyo siyosatida o'ziga xos rol o'ynashi mumkinligini yaqqol ko'rsatdi.

Ayni chog'da Yevropaning qadim Turonzamin o'lkalari bilan hamkorligi ayrim "do'stlarimiz"ga yoqmagani, ularning paytavasiga qurt tushganini ham esdan chiqarmaslik lozim...

Kuni kecha Toshkentda nihoyasiga yetgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi esa chin ma'noda O'zbekiston va u tutgan yo'l qanchalar to'g'ri ekaniga yana bir yorqin misol. Anjumanda 140 ga yaqin davlatning 2 mingdan ziyod delegati qatnashdi. O'zbekiston poytaxtida dunyodagi vaziyat, muammolar tilda olindi, tahlil qilindi.

Ayniqsa, anjumanda O'zbekiston Prezidentining ishtiroki va so'zlagan nutqi millionlab dillarda birdek aks sado berganini alohida ta'kidlash joiz. Jahonning turli mintaqalaridagi nizolar global va mintaqaviy tinchlik va xavfsizlikka jiddiy tahdid solayotgani, Ukraina inqirozi BMT rahbarligida, amaldagi xalqaro huquq normalari asosida

**“Xalqaro Assambleya O'zbekiston parlamenti tashabbusi bilan "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" mavzusida o'tkazilgani chuqur ramziy ma'noga ega. Bugungi kunda yangi O'zbekiston ortga qaymas demokratik islohotlar va pragmatik tashqi siyosat yo'lidan dadil qadam tashlab, dunyo hamjamiyati bilan to'g'ridan to'g'ri, ochiq va jadal muloqot qilmoqda.**

hal etilishi lozimligi, Falastin inqirozi uchun yagona yechim "ikki xalq uchun — ikki davlat" tamoyili ekani, Afg'onistonda o'z muammolari bilan yolg'iz qoldirmaslik, qayta tiklanadigan energiyaga ustuvorlik berish, "yashil" texnologiyalarga o'tishni rag'batlantirish — kelajak avlodlar oldidagi majburiyatlar, sun'iy intellekt sohasida butun dunyoda o'yin qoidalari bir xil bo'lishi kerakligi, Parlamentlararo Ittifoq tizimida Yoshlar parlamentlarining global platformasi zarurligi, butun dunyo kambag'allikdan qutulish yo'lini birgalikda izlashi lozimligi haqidagi takliflar xalqimizning xohish-irodasi, ovozi o'laroq yangradi.

E'tirof etish lozim, safida 181 ta milliy parlament va 15 ta mintaqaviy uyushmani birlashtirgan mazkur ittifoqning yubiley Assambleyasi nafaqat O'zbekiston yoki

vakillik hokimiyatini rivojlantirish borasida erishilayotgan katta natijalarning e'tirofi, deb qabul qilamiz.

Men ham 15 yil davomida parlament a'zosi bo'lganman. Dunyoni tinch-osoyishta, jamiyatlarini yanada farovon qilishga qaratilgan olib borilayotgan faoliyatimiz naqadar mas'uliyatli ekanini yaxshi bilaman va tushunaman.

Sizlar — bamosoli xalqlarni bir-biriga bog'lovchi mustahkam do'stlik ko'prigisiz. Sizlar — odamlarning dardu tashvishi va muammolarini eng quyi tizimdan boshlab, kerak bo'lsa, mintaqaviy va xalqaro miqyosga olib chiqishga, ularga samarali yechim topishga qodir bo'lgan qudratli kuchsizlar", deb ta'kidladi o'z nutqida O'zbekiston Prezidenti.

Yaqinda e'lon qilingan "Parlamentdagi ayollar: 1995-2025-yillar" hisobotiga ko'ra,

### Xalqaro anjuman

# TOSHKENT DEKLARATSIYASI BARQAROR KELAJAKKA YO'G'RILGAN TASHABBUSLAR MAJMI

#### Boshlanishi 1-betda

140 ga yaqin davlatdan 2 mingdan ziyod delegat qatnashgan anjuman doirasida tashkil etilgan "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" mavzusidagi debatlar 120 dan ortiq milliy parlament, 12 ta hamkor tashkilotdan 160 nafar ma'ruzachi chiqish qildi. Bu jarayonda parlamentlar oldida turgan eng asosiy vazifalar yuzasidan atroflicha fikr almashildi va istiqbolli rejalar belgilab olindi.

#### Selene AVILA, Meksika kongressi a'zosi:

O'zbekistonga birinchi kelishim. Poytaxtingizning zamonaviy qiyofasi va xalqingizning mehmondo'stligi menda katta taassurot qoldirdi. Xalqaro anjuman yuqori saviyada tashkil etildi. Tadbir doirasida Prezidentingiz bilan uchrashish



kambag'allikka qarshi kurashishni olaylik. Bu masala bizning mamlakatimizga ham taalluqli yo'nalishdir. Sababi, Meksikada aholining muayyan qatlami ushbu toifaga kiradi. Shu bohis, kambag'allikka qarshi kurashish mamlakatimiz siyosatida ham ustuvor o'rin egallaydi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda bu borada qator ishlar amalga oshirilgani va yaxshi natijalarga erishilayotgani bizni juda quvontiradi. Bu yo'nalishda o'zaro tajriba almashish va hamkorlikni kengaytirish oldimizda turgan muhim vazifa — ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash va adolatli jamiyat barpo etishda muhim omil bo'ladi.

**“Anjuman kun tartibidan insoniyatning bugungi kuni va kelajak hayotiga daxldor ko'plab masalalar o'rin oldi. Ularning barchasi o'z yechimini topishida jahon parlamentlari vakillarining o'rni muhim. Ushbu tadbir hamkasblarimiz bilan o'zaro muloqot qilish va hamkorlikni yanada kengaytirishga xizmat qiladi, degan fikrdaman.**

#### Pyayvi RYASYANEN, Finlyandiya parlamenti a'zosi:

Barchamiz guvohi bo'lib turganimizdek, bugun dunyoda ko'plab inqirozli holatlar yuzaga kelmoqda. Ba'zi joylarda notinchlik bo'lsa, boshqa mintaqalarda tabiiy ofatlar, ekologik noxushliklar kuzatilyapti. Shunday vaziyatda jahon hamjamiyati bir davraga jam bo'lib, muammolar yechimini topish uchun yuzma-yuz muloqot qilishi juda zarur edi. Shu jihatdan O'zbekistonda bo'lib o'tgan ushbu tadbirning ahamiyati katta. Shunday nufuzli anjumanda ishtirok etish imkoniga ega bo'lganimdan mamnunman.



Anjuman kun tartibidan insoniyatning bugungi kuni va kelajak hayotiga daxldor ko'plab masalalar o'rin oldi. Ularning barchasi o'z yechimini topishida jahon parlamentlari vakillarining o'rni muhim. Ushbu tadbir hamkasblarimiz bilan o'zaro muloqot qilish va hamkorlikni yanada kengaytirishga xizmat qiladi, degan fikrdaman. Safar taassurotlari haqida so'zlaydigan bo'lsam, yurtimizning zamonaviy qiyofasi, tabiati meni juda ilhomlantirdi. Kelgusida sayohat sifatida kelish niyatim bor. Maqsadim — yurtimizning tarixiy obidalari, qadimiy shaharlari va turli sohalardagi o'zgarishlar bilan yanada yaqinroq tanishish. O'z navbatida, parlamentlararo aloqalarni rivojlantirishda ham hamkorlik qilishga tayyorman.



Jamila BOBONAZAROVA, Oliy Majlis Senati a'zosi:

O'z safida 181 ta milliy parlament va 15 ta mintaqaviy uyushmani birlashtirgan Parlamentlararo Ittifoq anjumani yurtimizda bo'lib o'tgani katta yutug'imizdir. Zero,



bugun turli sohalarda muhim islohotlar amalga oshirilyapti. Jumladan, parlament faoliyati ham takomillashmoqda. Ayniqsa, parlamentda xotin-qizlar ulushi ortib boryapti. Ularining huquqini himoyalash, bandligini ta'minlash, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilyapti. Natijada ayollarning turli sohalarda faolligi oshib, jamiyat hayotida muhim harakatlantiruvchi kuchga aylanmoqda. Bu esa yurtimizdagi rivojlanish sur'atlariga katta turki bo'lyapti.

Prezidentimiz nutqida mazkur masalalarga alohida e'tibor qaratgani bejiz emas. Zero, xotin-qizlarning huquqlarini qat'iy qaror toptirish ijtimoiy taraqqiyotni yanada yuksaltirishning muhim asosidir.

Assambleya yakunida anjuman doirasida ilgari surilgan muhim g'oya, tashabbus va fikrlarni qamrab olgan Toshkent deklaratsiyasi, shuningdek, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida nizolarning oldini olish va oqibatlarini yumshatish bo'yicha parlamentlar strategiyalari, adolati va barqaror global iqtisodiyotni qurish, dunyoda adolati va mustahkam tinchlikni tiklashda parlamentlarning rolini oshirish bo'yicha rezolyutsiyalar qabul qilindi.

**“Yangi O'zbekiston” muxbiri Bahor XIDIROVA yozib oldi.**



# TO'RT MUHIM VOQELIK DAN QUVVATLANAYOTGAN JAHON



Salim DONIYOROV

## Boshlanishi 1-betda

O'sish va o'zgarishlar doim mana shunday kichik urug'larni qadash kabi oddiy ishlardan boshlanadi. Yangi O'zbekistondagi ilk o'zgarishlarni ham shu yo'sin ifoda etish mumkin. Yaqin tarixda Markaziy Osiyo davlatlari orasida simto'siqlar tortilgan, minalar o'rnatilgan edi.

Azaldan qaradosh, qo'shni bo'lgan xalqlar bir-biriga begonadagi viza rejimini joriy qilgan, bu nafaqat oddiy aholi, balki mamlakatlarning iqtisodiy o'sishiga ham to'siq bo'layotgandi. Qo'shnilar bir-biri bilan yoqa olishishgacha borgan ham achchiq haqiqat. Ana shunday murakkab vaziyatni yumshatish oson emasdi. Mintaqadagi bu holat o'nlanishiga ko'pchilik ishonmas edi. Shukrki, oqqan daryo oqmay qolmas ekan. Yangi O'zbekistondagi islohotlar ajdodlar merosiga mos ravishda rivoj topdi. Yangilanishlar teng huquqiy asosga ega ishonchli do'stlik zahiriga qurilmoqda. Bunday hayotbaxsh epkin butun mintaqaga tarqaldi. Dastlab viza rejimi bekor qilindi.

Birgina shu tarixiy qaror millionlab odamlarning taqdirini o'zgartirib yuborgan ayni haqiqat. Yaqin qarindoshi holidan bexabar yashayotgan, simto'siq ortidan shundoq ko'rinib turgan ota uyiga bora olmay, to'y va azalardan mosuvo bo'lganlar qancha edi. Viza rejimi bekor bo'lishi oddiy odamlarning ana shunday og'riqli dardiga malham bo'ldi. Shukrona sabab qo'llar el-yurt tinchligi, farovonligini so'rab ko'kka cho'zildi. Duo — xayr-baraka demak!

Savdo-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy aloqalar tubdan qayta ko'rib chiqildi. Hamkorlikning yangi va tubdan isloh etilgan dasturi ishga tushdi. Kechagina bir qarich yer sabab tug'ilgan bahslarga barham berildi. Xalqimizning "Ayrilmas qo'shningga uyatli so'z aytma", degan hikmatiga amal qildi. Natijada bahsli yerlar borasida maqbul kelishuvlarga erishib yagona mintaqa, bir butun jamiyatga aylanish maqsadi qaror topdi. Zero, faqat shu orqali keskin iqtisodiy o'sish va kafolati barqarorlikka erishish mumkin. Bu yo'lda o'zimiz o'zgarimasak, chetdan kelib hech kim biz uchun yaxshilik qilib bermasligini teran angladik.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Samarqanddagi "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti oldidan "Euronews" ga bergan intervyusida bu borada shunday fikr bildirdi: "...Afsuski, Markaziy Osiyo ham bunday holatlardan mustasno bo'lmagan. Turli davrlarda bu yerda qurolli to'qnashuvlar sodir bo'lgan, chegara masalalari, suv-energetika muammolari, transport va aloqa sohasidagi murakkabliklar, xavfsizlikka oid tahdidlar vaziyatni og'irlashtirgan. Bu esa uzoq davom eta olmasdi. Ixtiloflar kuchaydi, kelishmovchiliklar chugurlashdi va yuzaga kelayotgan murakkab vaziyat mintaqaning xavfsizligiga jiddiy tahdid sola boshladi.

Biz ana shunday real holatni anglab yetib, strategik qaror qabul qildik: Markaziy Osiyoda konstruktiv, yaxshi qo'shnihilikka asoslangan va o'zaro manfaatli munosabatlarni bosqichma-bosqich barpo etish. Bu yondashuvning zamirida o'zaro ishonch va hurmat, umumiy manfaatlarni hisobga olish va tan olish yotadi".

Ana shu konstruktiv, yaxshi qo'shnihilikka asoslangan hamkorligimiz samara bera boshladi. O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston Davlat chegarasini delimitatsiya qilish va uch mamlakat davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi shartnomalar imzolandi. Mintaqamizning barqarorlik, ichki taraqqiyotining timsoli sifatida Do'stlik stelasi o'rnatildi.

Xalqimizda "Baraka—inoqlikda", degan maqol bor. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iliq munosabatlarni rivojlantirib borgan sari mintaqa, xususan, yurtimizga baraka yog'ilyapti, desak mubolag'a bo'lmaydi. Fikrimizni aniq faktlar bilan asoslasak. So'nggi yillarda O'zbekistonning Qirg'iziston va Tojikiston bilan tovar ayirib olish hajmi o'n karra dan ziyodga oshgan. Mazkur hajmning deyarli yarmi chegaradoli hududlarga to'g'ri keladi. Bu bevosita keyingi yillardagi o'zgarishlar, nafaqat mamlakatlar, balki ma'lum viloyat, tuman doirasida savdo-iqtisodiy aloqalar yo'lga qo'yilganing samarasidir.

Hamkorligimiz yangi bosqichga chiqqan ekan, demak bundan keyin ishlarni o'shanga munosib tashkil etish zarur. Shu bois, Xo'jand sammiti chiq'ida mamlakatlar yetakchilari chegaralardagi bo'xona punktlarini kompleks modernizatsiya qilish va kengaytirish, qulay, zamonaviy savdo va logistika infratuzilmasini shakllantirish borasida fikr almashdi. Uch tomonlama savdo

maydonchasini tashkil etish, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining doimiy faoliyat ko'rsatadigan ko'rgazma-yarmarkasini yo'lga qo'yish masalasini o'rganish taklif etildi.

Umuman, bunday yirik mashtabdagi o'zgarishlar tadbirkorlarga keng yo'l ochdi. Bugun O'zbekiston ishbiarmonlari qo'shni mamlakatlarda zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishda faol qatnashmoqda. Mazkur yo'nalishdagi ishlarni jadal davom ettirishda qo'shma investitsiya jamg'armalari kapitalini bosqichma-bosqich oshirishga tayyor ekanimiz aytili. Bu bevosita mamlakatlar o'rtasida transport, logistika aloqalarini yana rivojlantirish talabini qo'yadi. Mazkur yo'nalishda ham mamlakatlarimiz kelishuvlarga erishdi.

Shu kabi ko'plab faktorlar sabab bugun dunyo ahli Markaziy Osiyo ruhi haqida so'zlamog'qa. Mintaqamiz bilan hisoblashish kerakligini tushunib yetyapti. Markaziy Osiyoga iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy imkoniyatlarga ega barqaror hudud, degan qarash shakllanyapti. Buning amaliy qiyofasi biz quyida fikr bildirmog'chi bo'lgan tarixiy voqeikda to'la-to'kis aks etdi.

## UYG'OQ QALBLAR KENGASHI

IKKINCHI VOQELIK. Ko'hna va navqiron Samarqand shahrida "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti bo'lib o'tdi.

Amir Temurning shunday hikmatli so'zi bor: "Kengash ikki turli bo'lur: biri — til uchida aytilgan, ikkinchi — yurakdan chiqqani. Til uchida aytilganini shunchaki eshitardim. Yurakdan aytilgan maslahatni esa qalbm qulog'iga quyardim va dilimga joylardim".

Xuddi shuningdek, Samarqanddagi "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti uyg'oq qalblar kengashi bo'ldi. Nega uyg'oq qalblar, deya ta'kidlayapmiz? Sababi oddiy. Bugun dunyo qiyofasi, geosiyosiy jarayonlar tubdan o'zgaridi. Qutblarni aniqlash, kechayotgan jarayonlar oqibatini prognoz qilish murakkablashdi. Mudofaa qudrati ham, iqtisodiy barqarorlik ham to'la kafolat bo'la olmasligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Bunday vaziyatdagi yagona to'g'ri yo'l do'stlik, ishonchli hamkorlikdir. Shu ma'noda, ikki mintaqaning hamkorligi tarixiy voqea bo'ldi.

"Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti ko'pqirrali kelishuvlarga zamin yaratdi. "Samarqand ruhi", degan tarixiy haqiqat sabab bu sammitning ishtirokchilari baland bo'lishiga ishonchlik komil.

Ajdodlarimiz chuqur hayotiy kuzatishlar evaziga dunyo iqtisodiy munosabatlarga orqali obod bo'ladi, degan. Bilimizki, azaldan karvon yo'lidagi shahar aholisi farovon yashagan. Ilim-fanda ilg'or bo'lgan. Negaki, o'z davrining onlayn darxonasi ham, sun'iy intellektga o'xshash zamonaviy bilimdoni ham karvonlar bilan qo'shilib kelgan. Xuddi o'sha tijorat ahli yangi ilim-fan va madaniyatni olib



ulkan hissa qo'shdi. Buning tasdig'i o'laroq Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Mutaridiy, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk alloma va mutafakkirlarimiz nomini eslashning o'zi kifoya. Demogichimizki, yurtimiz hamisha sivilizatsiya o'chog'i bo'lgan. O'ltamiz barcha zamonlarda unumdor tuproq kabi ilim-fan xirmoniga mo'lasos bo'lgan. Bizgacha qanday ta'limot, ilim-fan yoki madaniyat yetib kelsa, u albatta, ajdodlarimiz zehni ila mukammal darajada rivojlangan va dunyo ahliga taqdim etilgan.

Bunda Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan Samarqand shahrining alohida o'rni bor. Bu qadim shahar asrlar davomida sivilizatsiyalar muloqoti hamda Sharq va G'arb o'rtasidagi diplomatiya, savdo va madaniy almashuvlarning muhim markazi edi. Xususan, Amir Temur Yevropa hukmdorlari bilan erkin va xavfsiz savdoni ta'minlash maqsadida faol aloqalar o'rnatdi. Biz bugun bunday savdo aloqalarini o'zaro ishonchga asoslangan strategik sheriklik deb ataymiz.

Temur bobomiz davridagi tinchlik qiymati boshiga oltin to'la savat ko'targan kishi karvon yo'lini xatarsiz bosib o'tishi bilan ifoda etiladi. Uning hayotiy natijasi ham bizga yaxshi ayon. Amir Temur davrida farovon va barqaror davlatlilik vujudga keldi. Barcha soha — ilim-fan, iqtisod, hunarmandchilik, bunyodkorlik, adabiyot va san'at birdek rivojlandi.

yangi bosqichga chiqdi. Siyosiy muloqotlarni mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlar va investitsiyalar, ko'p tomonlama hamkorlikning huquqiy va institutsional asoslari ko'rib chiqildi. Sammit yakunlari bo'yicha Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasida strategik sheriklik o'rnatish haqida tarixiy qaror qabul qilindi.

Xuddi qadimda bo'lganiday ko'pqirrali hamkorlikning yangi bosqichiga asos solindi. Qadimda ham tijorat ahli investitsiya kiritgan. Hunarmandlarga, ishlab chiqaruvchilarga avvaldan pul berib mahsulot olgan. Bugun ham tarmoqlarga sarmoya kiritish borasidagi hamkorlikni kengaytirish va tovar ayirib olishni ko'paytirish haqidagi ezuq tashabbuslar ilgari surildi. Ajdodlarimiz eng so'nggi texnologiyalarni, bilimlarni karvon yo'llari orqali o'zlashtirgan, dedik. Ikki mintaqa o'rtasidagi yangi aloqalarda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy salohiyatga xizmat qiladigan kelishuvlar haqida so'z bordi. Amaliy qadamlar tashlandi.

Texnik taraqqiyot davri o'z zamoniga mos yangicha oldi-berdilarni ham kun tartibiga chiqarmoqda. Bu "yashil" energetika ekspozitidir. 2024-yilda Boku shahrida o'tkazilgan BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyalarni Tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasi (COP29) doirasida bu borada jiddiy qadam tashlangan edi. Shunga ko'ra, O'zbekiston, Qozog'iston va Ozarbayjon Yevropaga "yashil" energiya yo'lga loyihalasini ishga tushirish borasida kelishuvga erishdi. "Yashil" energetikada mintaqaviy katta salohiyatga ega. Undan oqilona foydalanishda Yevropaning zamonaviy texnik imkoniyati ham qo'l keladi, nazarimizda. Demak, har ikki tomonga birdek foydali, ishonchli kelishuvga asos bor. Mazkur yo'nalish ekspertlar tomonidan zamonaviy geosiyosiy hamkorlik, deya ta'riflanmoqda. Shuning o'ziyoq ortga qaytmassan o'lgan o'zgarishlar butkul yangi qiyofa kasb etib borayotganini ko'rsatadi.

Yana bir muhim jihat, logistika yo'nalishidagi hamkorlik haqida to'xtalish kerak. Mahsulotlarni, sanoat va qishloq xo'jaligining tayyor tovarlarini Yevropa bozoriga yetkazib berish uchun samarali transport yo'laklari mavjud emas. Shu ma'noda, Transkaspian transport yo'lagini kengaytirish va undan foydalanish uchun muvoqilashirilgan chora-tadbirlar va qulay sharoitlarni ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi. Shu maqsadda Yevroittifoq shafeligida ushbu yo'nalishda joylashgan mamlakatlar transport vazirlarining uchrashuvini chaqirib, o'zaro kelishilgan yondashuvlarni ishlab chiqish taklif qilindi.

Taraqqiyot takrorlanuvchi xususiyatga ega, degani aynan shu bo'ladi. Nazarimda ushbu logistik kelishuv Buyuk ipak yo'lining zamonaviy muqobil bo'lib xizmat qiladi. Bu ekspozitimiz salohiyatini oshiradi. Mintaqalar o'rtasidagi asiy aloqalarni yanada mustahkamlaydi. Quvonarlisi shundaki, YITB prognozlariga ko'ra, joriy yilda mintaqaviy yalpi ichki mahsulot hajmi 6 foizgacha oshadi. Bu boshqa mintaqalardagi o'rta ko'rsatkichlardan sezilarli darajada yuqori demak. Mamlakatlarimizda yetakchi milliy ta'lim muassasalarining filiallari ochilmoqda. Xorijlik sayyohlar uchun yagona Markaziy Osiyo vizasi loyihasi ilgari surilmoqda. Bularning barchasi Markaziy Osiyo murakkab geosiyosiy jarayonlar vaqtida xalqoq maydonda yangicha niyoh va formatda o'zini ko'rsata boshlaganidan dalolat.

**“ Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, parlament vakillari o'z xalqining xohish-irodasini namoyon etib, milliy taraqqiyot modellarini ishlab chiqishda, zamonaviy xavf-xatarlarga munosib javob berishda katta rol o'ynamoqda. Ya'ni anjumanda shaxslar, hudud yoki mamlakatlar emas, balki millionlab oddiy odamlarning xohish-istaklari ustuvorlik kasb etdi. Bu to'la-to'kis yangi O'zbekiston tanlagan yo'lga mos keladi.**

## XALQNI ROZI QILISHNING O'ZBEKCHA MODELI

UCHINCHI VOQELIK. Toshkent shahrida Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi bo'lib o'tdi.

Ta'kidlash zarur, o'z safida 181 ta milliy parlament va 15 ta mintaqaviy uyushmani birlashtirgan Parlamentlararo Ittifoqning Assambleyasi ilk bor Markaziy Osiyo mintaqasida bo'lib o'tdi. Ekspertlar uning yubiley Assambleyasi Toshkentda o'tkazilganida ham ramziy ma'no borligini ta'kidladi.

Prezidentimiz o'z nutqida Assambleya ishtirokchilariga murojaat qilib: "Sizlar — bamisoli xalqlarni bir-biriga bog'lovchi mustahkam do'stlik ko'prigisiz. Sizlar — odamlarning dard-u tashvishi va muammolarini eng quyi tizimdan boshlab, kerak bo'lsa, mintaqaviy va xalqoq miqyosga olib chiqishga, ularga amaliy yechim topishga qodir bo'lgan qudratli kuchsizlar.

Albatta, sizlar o'z xalqlaringizning xohish-irodasini namoyon etib, milliy taraqqiyot modellarini ishlab chiqishda, zamonaviy xavf-xatarlarga munosib javob berishda katta rol o'ynamoqdasiz", dedi.

Anjumanning har bir ishtirokchisi ortida turgan saylovchilarni hisobga olsangiz juda katta raqam paydo bo'ladi. Bu, bir o'z badiyat bilan aytganda, dunyo aholisining deyarli yarmi biz bilan hamfikr ekanini ko'rsatadi. Zero, anjumanda 140 ga yaqin davlatdan 2 mingdan ziyod ishtirokchi qatnashdi. Yana bir muhim jihat, O'zbekiston tashabbusi bilan Assambleya "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" mavzusida o'tkazildi. Shu orqali dunyoning turli mintaqa va mamlakatlardan kelgan xalq vakillari yangi O'zbekiston siyosatining ustuvor yo'nalishlari bo'lgan jihatlarga befarq

emasligini tasdiqladi. Mazkur tadbir faqatgina parlamentarizm va barqaror rivojlanishning joriy tajribasi yuqori bo'lgan mamlakatlardagina o'tkaziladi. Shuning o'ziyoq yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning xalqoq miqyosdagi yana bir ulkan e'tirofidir.

Assambleyaning asosiy mavzusi doirasida butun dunyo parlamentlari aholini ijtimoiy himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish, huquq ustuvorligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va o'z tajribalari bilan o'rtog'lashdi. Shuningdek, Parlamentlararo Ittifoqning qo'mitalari tomonidan inson huquqlarini himoya qilish, gender tenglikni ta'minlash, ilim-fan va texnologiya, yoshlar masalalariga bag'ishlangan turli tadbirlar tashkil etildi. Buni juda uzoq tahlil qilish mumkin. Ammo vaqtigizni olmaslik uchun mazkur anjumanga qisqa izoh bersak.

Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, parlament vakillari o'z xalqining xohish-irodasini namoyon etib, milliy taraqqiyot modellarini ishlab chiqishda, zamonaviy xavf-xatarlarga munosib javob berishda katta rol o'ynamoqda. Ya'ni anjumanda shaxslar, hudud yoki mamlakatlar emas, balki millionlab oddiy odamlarning xohish-istaklari ustuvorlik kasb etdi. Bu to'la-to'kis yangi O'zbekiston tanlagan yo'lga mos keladi.

Inson qadri uchun boshlangan islohotlarimiz Bosh qomusimizda ijtimoiy davlat tamoyili bilan mustahkamlandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning muallifi xalqimiz bo'ldi.

Toma-toma ko'l bo'ladi, deyishadi. Yurtimizdagi yangilanishlar dastlab xalqimizda ertangi kunga ishonchni mustahkamladi. Islohotlar ko'lami xalqoq miqyosga chiqib, Markaziy Osiyo ruhini paydo qildi. O'sha o'sish, rivojlanish evaziga mintaqalararo hamkorlik, degan qadimiy aloqalarning zamonaviy qiyofasi vujudga keldi. Natija shunday bo'ldi-ki, bu kabi islohotlarga dunyo xalqlarining farovonligi, siyosiy tafakkurning samarali targ'ibotchilari bo'lgan parlament vakillari nafaqat ishonch bildirdi, balki, xalqni rozi qilishning o'zbekcha modelini o'rganish, o'zlashtirish kerakligini tan oldi.

## YANGI O'ZBEKISTONNING "YASHIL" TASHABBUSLARI

TO'RTINCHI VOQELIK. Samarqand xalqoq iqlim forumi va uning doirasida Orol madaniyat sammiti bo'lib o'tdi.

Bugun ekologik masalalar global darajaga chiqdi. Ilimiy tadqiqotlar yaqin kelajakdagi xatarlardan ogohlantirmoqda. Shunday vaziyatda barcha bir yoqadan bosh chiqarib, amaliy ishlariga o'tishi shart. Shu bois, Prezidentimiz forum ishtirokchilariga qarata, "Atrof-muhitni asrab-avaylashda mas'uliyat barchamizning zimmasida. Bu kun tartibimizdagi eng muhim masaladir", dedi.


Agar yangi O'zbekistondagi o'zgarish, islohotlarning eng muhim bitta jihati aytish zarur bo'lsa, mavjud masalalarga natijador, hayotiy yechim berilayotganiga urg'u bergan bo'lardek. Buni birgina Orol misolida ham ko'rib turibmiz. Yurtimizdagi ilk o'zgarishlar davridayoq asiy muammoga eng yaxshi yechim topildi. O'sha vaqtning o'zida amaliy harakatlar boshlandi. Orolbo'yining 2 million gektardan ortiq cho'l hududlarida qurg'oqchilikka chidamli o'simliklar ekildi.

Biz maqolamiz avvalida yurtimizda boshlangan o'zgarishlar asta-sekin quloqch yozib, xalqoq maydonda qiyoyotganini aytgan edik. Yangi O'zbekistonning "yashil" tashabbuslari ham xuddi shunday qiyofa kasb etmoqda. Prezidentimiz forumda ajoyib g'oyani ilgari surib, "Har yili Navro'z bayrami arafasida daraxt ekish bo'yicha "Markaziy Osiyoning yashil belbog'i" mintaqaviy aksiyasini o'tkazishni taklif etaman", dedi.

Hazrat Alisher Navoiy besh asr avval: "Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig'.

Yor o'lung bir-biringizgaki, erur yorlig' ish", deya xitob qilgan edi. Bugun ushbu chaqiriq yangi O'zbekiston minbarida zamonaviy ohanglarda bot-bot takrorlanmoqda. Orol madaniyat sammiti mintaqani san'at, madaniyat, dizayn va ilim-fan orqali ijtimoiy va ekologik jihatdan o'zgartirishga qaratilgan yangi loyiha hisoblanadi. U Orol dengizi ekotizimini asrab-avaylash, mahalliy madaniyatni xalqoq maydonda ommalashtrish bo'yicha yangi strategiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning o'zi ham alohida mavzu va tahlil talab etadi.

Umuman, keyingi ikki hafta Markaziy Osiyo, xususan, yangi O'zbekiston turli xalqoq mediaoalanning bosh mavzusi bo'ldi. Butun dunyo nigohi bizga qaratildi. Ular yuqorida sanab o'tgan yirik hodisalarni tahlil va talqin qilish bordi. Bu zamonaviy dunyoda Markaziy Osiyo hal qiluvchi kunga aylanib borayotganini ko'rsatadi. Mazkur jarayonda yangi O'zbekiston yetakchisi Shavkat Mirziyoyev tashabbuskor ekanini, o'zgarishlar markazida turgani bizda faxr uyg'otadi. Shu bilan birga, barchamizning oltinimiz Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlarga munosib, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslar bo'lish talabini qo'yadi.





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

# 10 MILLIONDAN ZIYOD AHOLI HAYOTIGA DAXLDOR HUJJAT

## FUQAROLARNING O'Z MULKIGA EGALIK HUQUQINI BERA BOSHLADI

Yurtimizda fuqarolarning o'ziga tegishli, ammo hujjatsiz yoki o'zboshimchalik bilan o'zlashtirilgan minglab yer maydoni va unda qurilgan uy-joy mavjud. Odamlar o'zi foydalanib kelayotgan xususiy mulkni rasmiylashtirib olishi yillar davomida eng katta muammolardan biri bo'lib keldi. Bunga uy-joy yoki yerga oid hujjatlar yo'qolib ketgani yoki noto'liq ekani, fuqarolarning o'z vaqtida murojaat qilmagani, qolaversa, ushbu yo'nalishda tizimli ishlar bajarilmagani kabi ko'plab omillar sabab. Qolaversa, bu borada aniq huquqiy asos mavjud emas edi.

### Boshqa hududlarda jarayon qanday?

Endi bu fuqarolar o'z mulkining qonuniy egalari aylandi. Shu bilan birga, ularda o'z uy-joyini boshqa shaxsga hadya qilish yoki sotish, oila a'zolarini doimiy ro'yxatga qo'yish kabi huquqlar ham paydo bo'ldi. Qolaversa, uyini ta'mirlash yoki qo'shimcha qurilish qilish uchun imtiyozli kreditlar olishi, uy-joy jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilsa, qonunga muvofiq kompensatsiya talab qilishi mumkin.

uchun mulk huquqini rasmiylashtirishga ruxsat berilgan. Ular 2018-yil 1-mayga qadar o'zboshimchalik bilan egalangan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlar, maydondan ortiqcha egalangan yer uchastkasi hamda unda qurilgan uy-joylar, "bir martalik aksiya" doirasida huquqlarni e'tirof etish oxiriga yetmagan mulklar va hokazoni o'z ichiga oladi.

Qonunda "o'zboshimchalik bilan egalangan" degan jumla alohida qayd etilgan bo'lib, bu ko'pchilik tushunganidek, noqonuniy egalab olingan yer yoki uy-joyini



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM  
O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Minglab yurtdoshimiz ana shunday huquqqa ega bo'lish istagida. Qonunda ham bu jihat nazarda tutilgan bo'lib, 2028-yilga qadar hujjatlashtirish ishlarini to'liq yakunlash belgilangan. Buning uchun Kadastr agentligi xodimlari mahallalarda bo'lib, har qanday ob-havo sharoitiga qaramay, xatlov ishlarini bajaryapti. Qonun bilan 8 toifadagi obyektlar

anglatmaydi. Gap shundaki, qonunchilikda hujjatlar saqlanib qolmagan yer yoki bino-inshootlarga nisbatan ham "o'zboshimchalik bilan egalangan" degan ta'rif qo'llanadi. Masalan, o'tgan asrda ajratilgan yerning ko'pi shunday holatda, ya'ni qaysidir sababga ko'ra, hujjati saqlanib qolmagan, butunlay yo'q bo'lib ketgan. Ularning barchasi tegishli

tartibda o'rganilib, qonuniy yechimlari beriladi.

Biroq bu barcha hujjatsiz mulkka egalik huquqi e'tirof etiladi, degani ham emas. Bu bo'yicha qonunda asosiy shartlar va talablar aniq belgilangan. Masalan, yer boshqa shaxsga ajratilmagan yoki auktionsga chiqarilmagan bo'lishi, yer bo'yicha nizo bo'lmasligi, bosh reja talablariga zid emasligi va boshqa omillar hisobga olinadi.

O'zboshimchalik bilan egalab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga taalluqli ma'lumotlar hamda hujjatlarini kelishish Kadastr agentligining avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshirilmoqda. Bu tizimga 18 ta vakolatli tashkilot ham tegishli ma'lumotlarni kiritadi. To'plangan hujjatlarining to'liqligi va qonuniyligi viloyat adliya boshqarmasi tomonidan tekshirib chiqiladi. Ularning natijasi mahalla burchaklari, Kadastr agentligining sayti orqali jamoatchilikka e'lon qilinadi. Ijoiy xulosa chiqqan fuqarolarga SMS xabaromana yuboriladi. U asosida bir martalik to'lov to'laganlarning egalik huquqi har chorakda Xalq deputatlari viloyat kengashi qarori asosida e'tirof etiladi.

Hujjatsiz mulkka kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish aniq tartib asosida o'rganilib, bir necha bosqichda ko'rib chiqiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda muhokamadagi hujjatlar soni 59 ming 30 ta, jamoatchilikka e'lon qilinganlari 11 ming 56 ta, ko'rib chiqilayotganlari 438 ta, jarayondagi yerlar soni 637 ta, e'tirof etilganlari esa 5 ta.

Qonun asosida yurtimiz bo'yab xatlov ishlari muntazam va faollik bilan bajarilayotgan, deydi Kadastr agentligi direktorining axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi Ne'matjon Otamurodov. — Buning uchun 4 mingdan ziyod kadastr xodimi jalb qilingan. Xatlov natijasi barcha davlat idoralari integratsiya qilingan yagona platforma — etirof.kadastr.uz saytiga kiritib borilmoqda. Yurtdoshlarimiz mazkur ochiq tizim orqali jarayonni bevosita kuzatishi mumkin. Agar fuqaroning mahallasida xatlov o'tkazilgan bo'lsa, ana shu jarayon va bu bo'yicha davlat idoralarning xulosalari, ochiq

xaritada yer maydonining chegarasini ko'rib, hatto o'z e'tirozini ro'yxatdan o'tgan holda yoki elektron kalit orqali kiritib qoldirishi uchun imkoniyat yaratilgan. Boisi, xatlov jarayoni o'z muddatida o'tishi nafaqat kadastr xodimlari, balki yurtdoshlarimizga ham bog'liq. Ulardan jarayonda faol ishtirok etish so'raladi. Jumladan, xatlov o'tkazilayotgan mahallalardagi xonadonlarda yoshi katta, kadastr hujjatlaridan xabardor odamlar bo'lsa, ma'lumotlarni to'g'ri va to'liq olishda kadastr xodimlariga yordamlashsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Sababi, bir mahallani tugatmay turib, boshqasiga xatlovga o'tilmaydi. Ma'lumotlar qancha tez to'plansa, ish shuncha tezlashadi. Jarayonda minglab yurtdoshimizning o'z mulkiga egalik huquqi qonuniy e'tirof etilib, xalqimiz xatlov natijalaridan mamnun bo'ladi.

Bu amaliyotning qiymatini yillar davomida o'z uyida yashab turib, mulkning egasi ekanini tasdiqlovchi hujjatlariga ega bo'lmaganlar yaxshiroq anglaydi. E'tiborlisi, yurtimizda bunday odamlar o'n yoki yuz kishi emas, balki minglab ekani hisob-kitob qilingan. Buning ortidan boshqa yo'nalishlarda ham yuzaga kelgan muammolarning oxiri ko'rinmaydi.

Mazkur qonun ijrosi qat'iy nazoratga olingani, maqsad aniq natijaga erishish ekani boisi shunda. Ushbu tarixiy harakat ortidan fuqarolar va tadbirkorlarning mulkka egalik huquqi tan olindi. Bozorda qonuniy kapital aylanmasi paydo bo'ladi. Odamlar o'rtasidagi mulkiy nizolar, jumladan, meros bilan bog'liq nizolarga yechim topiladi. Shuningdek, doimiy ro'yxatga qo'ydirish, moddiy yordam olish, maktab, bog'chaga joylashtirish kabi ijtimoiy muammolar hamda bino va inshootlarni kommunal tarmoqlarga ulash bo'yicha masalalar ham hal bo'ladi. Bundan adolat va shaffoflikni ta'minlashga birlamchi vazifa sifatida qaralmoqda.

Iroda TOSHMATOVA,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## IMTIYOZ YOKI UCH BAROBAR JARIMA QAY BIRINI TANLASH O'ZINGIZGA BOG'LIQ

Bobodehqonlarning aytishicha, bu yil qish faslining ancha iliq kelgani tabiatni o'tgan yillardagidan ertaroq uyg'otdi. Dalalarda ekin ishlari, ariq-zovurlarni tozalash, tevarak-atrofni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirishga ham ertaroq kirishildi.



### Yangicha yondashuvlar

Shukrki, zaminimizda yetishtirib bo'lmaydigan mahsulot kam. Ayni kunlarda dehqonlarimiz rezavor, sitrus mevalarni ham iqlimimizga moslab yetishtirish hadisini olmoqda. Bu borada berilayotgan imkoniyat, imtiyoz va rag'bat ularga qulaylik yaratish bilan birga, bandlikni ta'minlash, dasturxonlarimiz to'kinligi, arzon oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 14-fevraldagi "Tomorqa yer egalari va dehqon xo'jaliklari faoliyatida zamonaviy tashkiliy tizimni joriy qilish va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan imkoniyatlar ko'lamini yanada kengaytdi. Xususan, har yili 500 ta mahallada bittadan aholi tomorqasida amalga oshirilgan eng namunalari va innovatsion loyiha uchun bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravaridan oshmagan miqdorda grantlar ajratilishi belgilandi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga aholi tomorqasi hamda dehqon xo'jaliklari yerlaridan samarali foydalanishni tashkil etish bo'yicha qator vazifalar yuklatildi. Jumladan, vazirlik tomonidan aholi tomorqalari va dehqon xo'jaliklaridagi yer maydonlari to'liq xatlovdan o'tkazilib, "Online mahalla" platformasida ularni yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining aniq va batafsil ma'lumotlari bazasi shakllantirildi.

Endilikda aholi tomorqasi va dehqon xo'jaliklariga ijaraga berilgan yer maydonlaridan samarali foydalanish holati bo'yicha hokim yordamchisi tomonidan hududning iqlim sharoitini inobatga olgan holda har chorakda monitoring yuritiladi, — deydi Kambag'allikni qisqartirish va

bandlik vazirligi bo'lim boshlig'i Sherzod Otajonov. — Monitoring davomida hokim yordamchilari mahallalarda har bir aholi tomorqasidan maqsadli va samarali foydalanishi, jumladan, yerni tayyorlash, urug', ko'chat va daraxtlar ekish, issiqxonalar qurish bo'yicha ishlarni tashkil etish, yuzaga kelayotgan muammo va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosiga alohida e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, ajratilgan yerlarning qo'shimcha ma'lumotlari, ularda ekilgan mahsulotlar va daromad miqdorini hisoblash ham ular zimmasiga yuklanmoqda.

Ayni maqsadda, hozir vazirlikning "Online mahalla" platformasida hokim yordamchilari yer to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritishi uchun ikkita, ya'ni aholi tomorqalari va dehqon xo'jaliklaridagi yer maydonlarida yetishtirilgan hosil bo'yicha alohida modul yaratilgan.

Hokim yordamchilari uyma-uy yurib, yetishtirilgan mahsulotning geolokatsiyasi va suratlarni kiritgan holda, har chorakda bir marotaba monitoring qilib boradi. Agar fuqaro o'z tomorqasiga ekin ekmagani yoki qarovsiz qoldirgan bo'lsa, bu yo'nalishda belgilangan turli imtiyozlardan mahrum qilinadi.

Yana bir muhim jihat. Tomorqa yer egalari va dehqon xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha kengash tuzildi. Kengash uzum, shaftoli, gilos, xurmo, o'rik, mayiz kabi eng ko'p eksportbop mahsulotlar bilan birga, eksport salohiyati yuqori bo'lgan rezavorlar, olma, nok, limon va boshqa mevasabzavotlar yetishtirish hamda eksportni rivojlantirish bilan shug'ullanadi.

Lutfulla SUVONOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## Islahotlar samarasi

Hozir Sayxunobod, Zarbdor, G'ijduvon va Uychi tajribalari haqida ko'p eshityapimiz. Ularning ijoiy natijasini ko'ryapimiz, mamlakat bo'yab ommalashayotganining guvohi bo'lyapimiz. Bu o'z-o'zidan emas. Davlatimiz rahbarining topshirig'i, vazifalar taqsimlab berilishi, doimiy nazorat islohotlarga chinakam qanot bo'lyapti.

## Uychi tajribasi: QUMQO'RG'ON TUMANI ISHSIZLIKDAN XOLI HUDUDGA AYLANMOQDA

Masalan, Uychi tajribasi asosida Qumqo'rg'on tumanini ishsizlikdan xoli hududga aylantirish, migratsiya va kambag'allikni keskin qisqartirish, aholi daromadini oshirish hamda tomorqadan samarali foydalanishni tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli amaliy ishlar bajarilmoqda.

Ayni paytda tumanda 61 ta mahalla mavjud. Shundan 37 tasi sabzavot mahsulotlari yetishtirish hamda biogumus tayyorlashga ixtisoslashtirilgan. Tomorqa egalari 45 ming 458 kishi bo'lib, ularga qarashli jami ekin maydoni 6513 gektar.

Jumladan, tumandagi Yangiyer mahallasining rivojlanish nuqtasi dehqonchilik va savdo-sotiq. Bu yerda ko'plab xonadon egalari shaxsiy tomorqasidan foydalanishni asosiy faoliyatiga aylantirgan. Mahallada istiqomat qiluvchi Anor Xolliyeva Uychi tajribasi asosida 60 million so'mlik imtiyozli kredit ajratildi. Ko'mak natijasida ayolning tomorqasida 10 sotixli issiqxonaga qurildi. Shu asosda 12 kishining bandligi ta'minlandi.



Faoliyatimizni aynan davlatdan ko'mak olgandan so'ng boshlashga intildim. Yillar davomida ko'p harakat qilgandik. Hech birimiz ikki bo'lmagan. Mahallaning Uychi tajribasi asosida rivojlanishi bizga qo'l keldi. Yaxshi daromad topayapimiz, — deydi tomorqa egasi.

Isshixonada yangi tejamkor texnologiyalar qo'llanishi esa Anor Xolliyeva oilasiga iqtisodiy samara olib kelmoqda. Undan o'tnab olib, mahalladagi boshqa oilalar ham tomorqasidan millionlab so'm daromad topmoqda. Yangiyer mahallasida tomorqa madaniyati shakllangan. Fuqarolarning dunyoqarashi, hayotga munosabati ham boshqacha. Shu bois, yaxshi yashashga intilish kuchaymoqda. Aholi sitrus mevalar, sabzi, sholg'om, pomidor, bodring, tarvuz, qovun, kartoshka,



sabzi kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiryapti.

— Yaqinda Abdumalik Alimurodov xonadonida bo'ldik. Oila a'zolari issiqxonada qulupnay yetishtirish texnologiyasini puxta o'rganib, Uychi tajribasi doirasida imtiyozli kredit olgandi, — deydi "Yangiyer" MFYdagi hokim yordamchisi Suyun Qarshiyev. — Izlagan imkon, izlamagan bahona topadi, deyinmagan bora. Tomorqadan chiqqingiz kelmaydi. Oila a'zolari 2 yildan beri 5 sotix yerda qulupnay va boshqa ekinlar ekib keladi.

Dehqon xo'jaligi a'zolarining ta'kidlashicha, bir sotix maydonga 750 tup qulupnay ko'chat ekiladi. Mavsumda yerning unumdorligi, parvarishiga qarab, bir tup niholdan 200 grammacha hosil olish mumkin. Demak, bir sotix yerdan bir mavsumda o'rtacha 130-150 kilogramm hosil olinadi. Ayni paytda bozorlarimizda bir kilogramm qulupnayning narxi 150 ming so'mgacha. Endi daromadni o'zingiz chamalab ko'raversing.

Tumanda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning takliflari ham o'rganilmoqda. 2024-yilda mahallada korxonaga tashkil etilib, sintepandan ko'rpa va aydollar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Shuning barobarida 8 ayol ish bilan ta'minlandi. — Yangi loyihamiz uchun bankdan 100 million so'm moliyaviy yordam oldik. Buning evaziga nafaqat o'zimiz, balki boshqalar bandligiga ham hissa qo'shayapimiz, — deydi tadbirkor O'rol Ortiqov.

Uychi tajribasi asosida "Yangiyer" MFYdagi shirinlik ishlab chiqarish xususiy korxonasi 600 million so'mlik kredit evaziga zamonaviy qandolatchilik uskunalari va texnologiyalari bilan jihozlandi. Bu yerda ijtimoiy daftarlarda ro'yxatda turuvchi 50 ga yaqin ishsiz xotin-qizning bandligi ta'minlandi.

Umuman olganda, Surxondaryo viloyatida Uychi tajribasi asosida o'tgan davrda tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlari va aholi bilan 596marta uchrashuv o'tkazilgan. Natijada 74 ming 393 ta yangi ish o'rni ochilishi belgilab olingan.

Sayxunobod, Zarbdor, G'ijduvon va Uychi tajribalari bo'yicha shu yilning birinchi yarim yiliga 32 ta drayver loyiha infratuzilmasi uchun davlat byudjetidan jami 80 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratilishi maqsad qilingan. Joriy yil yakunigacha esa qiyamati 2 milliard 383 million so'mdan ortiq 93 ta drayver loyihami amalga oshirish ko'zlanayapti.

Sarvar TO'RAYEV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Uyg' oq fikr

UCHINCHI RENESSANS —  
ILM VA QALB BILAN  
BUNYOD ETILADIGAN IMORAT

Shukrulla YO'LDOSHEV,  
O'zbekiston Respublikasida xizmat  
ko'rsatgan fan arbobi

Uzoq yillik ilmiy faoliyatim davomida xalqimizning qanday tarixiy sinovlardan o'tib kelayotganiga guvoh olim sifatida so'nggi yillarda mamlakatimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni kuzatishdan g'urur tuyaman. Chunki bu yangilanishlar samarasini, chin ma'noda Uyg'onish davrini barchamiz ko'z o'ngimizda, amalda va natijalarda ko'rib, bilib turibmiz.

Bu shunchaki tildan chiqqan gaplar emas, dil tubida ildiz otayotgan haqiqat. Bu yurtimizda boshlangan, davom etayotgan yangi davr asosidagi, Uchinchi Renessans sari dadil borayotgan xalqimizning dillidagi iltiqorlar.

Darhaqiqat, o'tgan ikki ming yillik bizga ikki buyuk Uyg'onish davrini tuhfa etdi — Birinchi Renessans davrida Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy singari allomalilar ilm bayrog'ini ko'tarib chiqqan bo'lsa, Ikkinchi Renessans davrida Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi daholar ilm, adabiyot va san'atda beqiyos yutuqlarga erishdi. Bu esa bizning davrimizga kelib, Uchinchi Renessans ehtiyojini paydo qildi. Shundan kelib chiqib, Uchinchi Renessans hodisasi faqatgina voqe'lik atamasi emas, balki taraqqiyot yo'li, uyg'onish chaqirig'i hamdir.

Eng e'tiborli jihati — yangi Renessans markazida yoshlar turibdi. Chunki zamonaviy islohotlar, avvalo, yosh avlodni o'ylab, ularni kelajak bunyodkori sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan. "Yangi O'zbekiston — yangi imkoniyatlar mamlakati" tamoyili ham oddiy fikr emas, balki yurtimizdagi har bir yosh uchun ochilgan eshiklar — ta'lim uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, xalq-hunar maktablari, zamonaviy oliygo'harlar, nufuzli kasb-hunar grantlar va boshqa tashabbuslarda o'z ifodasini topmoqda.



Yurtimiz yoshlari tafakkurini, ilgama ishtiyoqini, keng dunyoqarashini ko'rib, yoshlikda qilgan orzularim shularning sillimosida ushlaganini his qilaman. Har bir qishloqda kutubxonaga, har bir maktabda kompyuter sinflari, har bir yigit-qizda turlicha orzu-maqсадlar — bular bizning avlodga kamyob edi.

Uchinchi Renessans, nazariyda, ruhiyatni o'zgartirishdan boshlanadi. Haqiqatan, ong o'zgarasa, jamiyat o'zgarib boshlaydi. Toki xalq o'z kuchiga, o'z yoshlariga ishonch bildirmas ekan, hech bir islohot kutilgan natija bermasligi dunyo tajribasidan yaxshi ma'lum. Quvonarlisi, xalqimiz ham, yoshlarimiz ham, ziyolilarimiz ham bir maqsad yo'lida jipslik bilan bormoqda.

Biroq ayni tarixiy bosqichda ziyolilar professor-olimlar, ota-onalar bir narsani yaxshi anglab yetmog'i lozim: biz yoshlarga bilimni, madaniyatni, tarixiy xotirani va eng muhimi, vatanga muhabbatni o'z holda yetkazmog'imiz, uqtirmog'imiz kerak. Chunki Uchinchi Renessansning asosiy me'morlari — ular. Yosh avlodni kuchli, barkamol va madaniyatli qilib tarbiyalash esa burchimiz sanaladi.

Bugungi yangilanishlar nafaqat siyosiy-iqtisodiy jabhalarni, balki eng muhim va nozik soha — ma'naviyatni ham qamrab olayotir. Zero, tarix guvoh: sanoat jihatidan qancha qudratli bo'lmasin, ruhiy quvvatini kuchaytirmasdan hech bir millat yuksala olmagan. "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" g'oyasi ham aslida mana shu haqiqatning tub falsafasidir. Ayni eslatmalar har bir ziyolining ichki chaqirig'i bo'lishi maqsadga mos — ma'rifat egalari uyg'onmasa, millat uyg'onmaydi.

Yaqinda bir guruh talabalar bilan erkin suhbat qurdik. Ulardan biri bunday savol berdi: "Domla, sizning avlodingiz qanday imkoniyatlarga ega edi?" Bir lahza sukutda qoldim. So'ng "Bizda imkoniyatlar emas, orzular bor edi. Qarang, sizlarda ikkalasi ham bor", dedim. Shu onda talabalarim ko'zida aks etgan hayronlik va faxr men uchun bugungi islohotlarning jonli ifodasi bo'lib tuyuldi.

Meni yana bir jihat juda quvontiradi: so'nggi yillarda boshqaruv tizimiga yoshlar faol jalb qilinmoqda.

E'tibor bersangiz, "Yoshlar — kelajagimiz" g'oyasi endi jarangdor shior emas, balki amaliy haqiqatga aylanib ulgurdi. Bugun vazirliklarda, hokimliklarda, parlamentda yosh, bilimli, xorijda tahsil olgan, ammo vatanga sidqildan xizmat qilishni istagan yigit-qizlar safi kengaymoqda. Bu, shubhasiz, mamlakatimiz kelajagini yoshlar qo'lga ishonib topshirayotgan, ularni yurtga muhabbat ruhida tarbiyalayotganlarning yuksak jasorati natijasidir.

Darhaqiqat, faqat hukumat yoki davlat organlari emas, biz — ziyolilar, akademiklar, o'qituvchilar, san'atkorlar, adabiyot ahli ham bu islohotlarning faol ishtirokchisi bo'lishimiz shart. Chunki Uyg'onish davri faqat ijtimoiy-siyosiy qarorlar ijrosi emas, onglarning uyg'onishi hamdir. Hozirgi yoshlarni besamar kontentlardan, ijtimoiy tarqoqlardan o'z tarixiga, o'z ildizlariga, o'z qadriyatlariga qaytarish — bizning ma'naviy frontdagi dolzarb vazifamiz.

Hamisha shuni istaymanki, har bir o'zbek yigit-qizi o'ziga savol bersin: "Men Uchinchi Renessansga qanday hissa qo'sha olaman?" Shundaygina bu harakat faqat davlatimiz tashabbusi emas, balki butun xalqning harakati, mas'uliyat chaqirig'iga aylanadi. Shundaygina uyg'onish chuqur ildiz otadi, asosi yanada mustahkam bo'ladi.

Umrimging keksalik pallasini aynan mana shunday g'ayratu shijoatga yo'g'rilgan o'zgarishlar davrida o'tkazayotganimdan faxrlanaman. Yoshlar

bilan ishlash, ularni ilm berish, yurt istiqboliga hissa qo'shish imkoniyatini tortibdan mamnun bo'laman. Bu dorilamon kunlar qadriini talabalarga hikoya qilib berishdan zavq tuyaman.

Yoshlarga qayta-qayta ta'kidlab charchamayman: ulug'vor o'zgarishlar avvalo, yuraklarda boshlanadi. Buni shaxsiy tajribamdan kelib chiqib aytaman. Juda yaxshi esimda, talabaliq chog'larimiz oliygo'har kichkina auditoriyalarida, pasqam devorlar orasida ilm o'rganardik. Darslar ko'pincha siyosiy qolipda o'tilar, savollar berishga ham ko'p-da jur'at etavermasdik. Ilm olish dunyoqarashni isloh qilish emas, ko'proq eslab qolish, yodlash edi. Ammo bugun butunlay boshqa davr, boshqa sharoit. Hozir talabalar o'z fikrini erkin bayon qiladi, istagancha savollar beradi, muhokamaning ildizini ildizlaydi. Buning ham ortida aynan erkin-erkin ta'lim muhiti yaratib berilgani turibdi.

Bugun Renessans deganda, ko'pchiligimiz tarixiy shaxslarni eslayapmiz. Biroq, menimcha, Renessans allaqachon har bir oila, har bir mahalla, ustozlar va shogirdlar yuragida nish o'ta boshlagan. E'tibor bersangiz, ota-onalar bolalarini xorijga o'qishga yuborishdan cho'chimayapti, ularni rag'batlantirayapti. Ko'p yoshlar tadbirkorlik qilyapti, axborot texnologiyalari sohasida muvaffaqiyatga erishib, dunyoni zabt etmoqda, sportchilarimiz bayrog'imizni yuksaklarda hilpiratmoqda. Uchinchi Renessans nishonlari paydo bo'la boshlagani aslida shu emasmi?!

Olim sifatida emas, vatanimning taqdiriga befarq bo'lmagan fuqaro sifatida aytamanki, bu islohotlar yo'li oson emas. Bu yo'lda to'siqlar, qarshiliklar, noto'g'ri tushunishlar ham bo'lishi mumkin. Ammo tarix ko'rsatdiki, eng go'zal ro'yoblar og'ir mashaqqatlar ortidan keladi. Yosh do'stlarim, sizlar bugungi imkoniyatlarni qadrlang, undan unumli foydalaning. Chunki sizlar tarixiy davrda yashayapsiz. Sizlar — kelajak allomalari, sizlar — ertangi Beruniy, Ibn Sino, Navoiy bo'lishingiz kerak. Buning uchun nafaqat bilim, balki jasorat, poklik, fidoyilik zarur. Eng muhimi, vatanni sevish lozim. Chunki Uchinchi Renessans faqat ilm bilan emas, qalb bilan bunyod etiladigan imoratdir.



Yuksalish pallasini

BILIM OLMASLIK UCHUN BAHONA YO'Q

BUGUNGI DAVR O'QISH VA O'RGANISH TALABINI QO'YMOQDA

Iqtidorli yoshlar salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularning ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, bandligini ta'minlash, intilishlariga sharoit yaratish davlatimizning ustuvor siyosatiga aylangan. O'tgan sakkiz yil mobaynida yosh tadbirkorlar soni uch karra ko'payib, ular biznes vakillarining salkam 40 foizini tashkil etayotgani, ishsiz yoshlar ikki karra kamaygani yuqoridagi gapning yaqqol isbotidir.

O'z sohalarida muvaffaqiyatga erishayotganlari safi esa tobora kengaymoqda. Hozirgi vaqtda dunyodagi nufuzli universitetlarda 1500 dan ziyod o'zbek talabasi tahsil olmoqda. Avvalgi 25 yil ichida davlat hisobidan 800 yigit-qiz xorijga o'qishga ketgan bo'lsa, birgina "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali so'nggi yetti yilda 2300 hamyurtimiz shunday imkoniyatga ega bo'ldi. Ilmiy darajali yosh olimlar soni 4 mingdan oshdi. Mutolaa madaniyatini shakllantirish umummilliy harakatga aylandi.

Ulg'ayib kelayotgan avlodning ilm egallashga ishtiyoqini oshirish uchun yoshlar bilan ishlash tizimi takomillashmoqda. Prezidentimizning joriy yil 26-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar bilan ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan yoshlarga yangi imkoniyatlar taqdim etiladigan bo'ldi. Farmonga ko'ra, endi reytingi yuqori xalqaro universitetlarda ilmiy daraja olgan, 35 yoshgacha bo'lgan yosh olimlarga uy-joy uchun 10 yil muddatga 800 million so'mgacha foizsiz ssuda ajratiladi. Nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida g'olib va sovrindor bo'lganlar uchun bir martalik pul mukofoti miqdori 5 karra oshiriladi. Energetika, transport, urbanizatsiya, zamonaviy arxitektura, tibbiyot yo'nalishlarida "El-yurt umidi" jamg'armasi kvotalari ko'paytirildi. 2025/2026-o'quv yilidan boshlab o'quvchilar o'rtasida muhandislik olimpiadalarini va tanlovlar o'tkazish yo'lga qo'yildi. G'olib bo'lgan bitiruvchi yoshlar texnika oliygo'hariga grant asosida o'qishga kiradi. Harbiy bilim yurtlarining namunali tinglovchilari uchun "Oliy bosh qo'mondon" davlat stipendiyasi joriy etildi.

Har bir davr yoshlarining bilim darajasini, dunyoqarashini, o'y-fikri, ma'naviy qiyofasiga qarab o'sha jamiyatning ertangi kunini tasavvur etish mumkin. Shu bois, mamlakatimizda yoshlar ta'limiga oid bunday ishlar yuzasidan faol, ziyoli yoshlarning fikri bilan qiziqdik.

"O'qituvchilik ortidan milliarderga aylandim!"

— To'qqiz-o'n yil oldin kimdir menga hali shunday davr keladi, imkoniyatlarning ko'pligidan qaysi biridan foydalanганиm qulayroq deb ikkilanib qolasan, deganida aniq ishonmasdim. O'zingiz ham guvohi bo'lib turibsiz, bugungi katta siljishlar niyat qilganimizdan-da ko'prog'ini taqdim etyapti, — deydi Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning kimyo fani bo'yicha o'quvchilari xalqaro olimpiadalarga tayyorlash guruhi rahbari, o'qituvchi Mohira Boltayeva. — Dastlab o'qituvchilar dala ishlari, og'qozbozlik, ortiqcha tadbir majlislarda qatnashish majburiyatidan ozod etildi, so'ng o'ylik daromad oshirildi, maoshning yana ham ko'tarilishi muallimning talabchanligi, kasbiy rivojlanishiga bog'landi.

Oldin faqat nufuzli xalqaro sport musobaqalarida o'rin olganlar munosib kutib olinardi, taqdirlandi. Ilm-fanda yutuq bilan kelganlarga esa, afsuski, faqat



maqto'v yortlig'i topshirilardi. Bugun xalqaro fan olimpiadalarida faxrlari o'rin egallaganlarni katta tantana bilan kutib, o'sha tantanadan-da kattaroq miqdordagi pul mukofotlari berilishiga o'rganib ham qoldik. Asosiysi, bu jarayon davom

o'zi nima? U insonga qanchalik muhim? Biror narsaning nimaligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lmasam, u nima uchun kerakligi xususida qanday fikr yuritish mumkin axir, to'g'rimi? Xo'sh, kimyo o'zi nima?



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



etyapti. Shu yilning 1-iyunidan xalqaro fan olimpiadalarida g'olib va sovrindorlariga to'lanadigan bir martalik pul mukofotining amaldagi miqdorlari 5 baravar oshirilishi, ochig'i, ilm o'rganmaslik uchun bahona qoldirmayapti.

Mana, ilming etagidan mahkam tutganlarga qarata "hozir uning oshig'i olchi", deyidigan kunlar keldi. Endi moddiy taraflama erkinlikka chiqish, ko'proq pul topish uchun e'tiqodi va ilmi sust, tinimsiz qimirlaydigan jag'i va uncha ham yarashmaydigan qiliqlari bilan tanilgan vaynerlarga "shogird tushish"ga ehtiyoj qolmadi.

Menda o'tgan nufuzli xalqaro fan olimpiadalaridan jamg'arilgan jami pul miqdori salkam bir milliard so'mga yaqin bo'lgani, menimcha, ko'plab yoshlarda ilgama nisbatan qarashni, munosabatlarni o'zgartirib yubordi. Endi ba'zilar o'qituvchilikka non topishning so'nggi chorasi, kun kechirishning arzon yo'li deb qaramaydi. Shuning o'ziga qanchalar xursandim. To'g'risini aytaman, ustozlik qilib milliarderga aylanishning faxri ham, zavqi ham boshqacha bo'lar ekan. Vijdonim oldida toza ekanimni, ota-onam va yaqinlarimni, eng muhimi, o'zimiz rozi qilayotganimni angladim. Maqtanayotgandek bo'lishim mumkin, biroq gaplarim samimiy.

Yaqin-yaqingacha kimyo nimaga kerak, degan savolni deyarli har kuni o'zimga berardim. Bu og'ir edi. Har tong shu so'rov qarshisida kalovlanib qolmaslik uchun bahona ildizlardim. Men tanlagan fan go'yoki eng tushunarsiz va keraksiz, bu yo'nalish bilan ertaga na oilamni va na o'zimni boqolaman deb xavotirlanardim. Biroq to'plangan tajribalar va erishilgan yutuqlar davomida savolni boshqacha qo'yishim kerakligini tushundim: kimyo

Ushbu so'rovni internetga yozsangiz, bir necha soniyada turli ta'riflar bilan minglab havolalar chiqib keladi. Mana, shulardan biri: "Kimyo — tabiiy fanning eng muhim va keng sohalaridan biri bo'lib, moddalarni, shuningdek, ularning tarkibi va tuzilishini, xususiyatlarini o'rganadigan fan".

Biroq bu izohlar nihoyatda quruq, hisdan bari: "Kimyo — tabiiy fanning eng muhim va keng sohalaridan biri bo'lib, moddalarni, shuningdek, ularning tarkibi va tuzilishini, xususiyatlarini o'rganadigan fan".

Biroq bu izohlar nihoyatda quruq, hisdan bari: "Kimyo — tabiiy fanning eng muhim va keng sohalaridan biri bo'lib, moddalarni, shuningdek, ularning tarkibi va tuzilishini, xususiyatlarini o'rganadigan fan".

Ushbu so'rovni internetga yozsangiz, bir necha soniyada turli ta'riflar bilan minglab havolalar chiqib keladi. Mana, shulardan biri: "Kimyo — tabiiy fanning eng muhim va keng sohalaridan biri bo'lib, moddalarni, shuningdek, ularning tarkibi va tuzilishini, xususiyatlarini o'rganadigan fan".

Ushbu so'rovni internetga yozsangiz, bir necha soniyada turli ta'riflar bilan minglab havolalar chiqib keladi. Mana, shulardan biri: "Kimyo — tabiiy fanning eng muhim va keng sohalaridan biri bo'lib, moddalarni, shuningdek, ularning tarkibi va tuzilishini, xususiyatlarini o'rganadigan fan".

katta mukofotlar bilan taqdirlanishimizni astoydil tushundirdim. Moddiy rag'bat, albatta, juda yaxshi, ammo uni asosiy maqsadga aylantirib, bor g'ayratni shunga sarflashga chiranish oxir-oqibat zo'rriqan bolaning imkoniyati bo'linib, maydalashib ketishiga sabab bo'ladi. O'quvchilarni har narsaning birinchi salbiy tomonlarini tez qabul qiladigan yoshda, ham nihoyatda qiziquvchan — chalg'ishlarini istamayman, maqsad qo'ydikmi, undan bir zum og'ishmay intilishda davom etishimiz kerak, bizdan talab etilayotgani aslida shu, — deydi Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning biologiya fani bo'yicha o'quvchilarni xalqaro olimpiadalarga tayyorlash guruhi rahbari,



o'qituvchi Husen Egamov. — Shundoq ham oxirgi yillar atrofimizda tinmay nimadir o'rganish kerakligini uqtiruvchilar, har doim zamon bilan hamnafasdek ko'rinadigan blogerlar, har bir kunining yangi yutuqlar va tajribalar bilan to'la ekanini ko'rsatish orqali harakatga chorlovchi besavod "motivatorlar" odamlarda biror foydali narsadan chetda qolish qo'rquvini kuchaytirib yubordi. Natijada faollik imitatsiyasi, degan holatga tushganlari soni oshib ketdi.

Faollik imitatsiyasida faoliyatingiz qaysidir maqsadga xizmat qilmaydi, maqsadingiz yolg'iz faol bo'lish, bo'sh o'tirmaslik bo'ladi. Ya'ni harakatsiz bo'lishni qabul qilolmaysiz, bo'sh o'tirmaslik uchungina harakatda bo'lasiz. Bu holni, ayniqsa, ko'plab tengqurlarimda uchrataman. Faollikning foydali jihatlarga shubham yo'q. Ammo faollik imitatsiyasi boshqa narsa. Unda ko'pincha energiyamiz, vaqtimiz, imkoniyatlarimizni zavq bilan emas, balki xavotirni bostirish uchun sarflaymiz. Ammo bu xavotir nimaiki qilmang, kamaymaydi, chunki sizdan zo'rroq tuyuladiganlar doim topiladi. Natijada o'zimizni qiyinlashga va bizga xos bo'lmagan qandaydir qahramon obrazini yasashga xizmat qiladigan erishib bo'lmaz maqsadlar qo'yamiz. Masalan, yiliga yuzta



kitob o'qish, uch oyda yangi til o'rganish, yigirma yoshgacha avtoullovi bo'lish va hokazo...

Bir oz chalg'ib ketdim, aytmog'chimanki, shosha-pisha kimdangi ko'rgan maqsadlarni o'zlashtirishimiz, bizga mos kelmaydigan hayotdan andoza olishga urinishimiz to'g'ri emas. Aslida, kimlar biz uchun namuna bo'la olishini bugun xalqaro maydonlarda ilmi, zakiylik bilan g'olib bo'layotgan, chet eldagi nufuzli oliygo'harlarga ta'lim olayotgan, professor bo'lib faoliyat yuritayotgan, ilm-fan inqilobi uchun katta-kichik kashtoyatlar qilayotgan hamyurtlarimiz isbotlab beryapti. Bugun shoshqaloqlikning ham, dangasalikning ham davri emas, balki mulohaza bilan ish ko'rib, o'z tafakkuri va shijoati bilan yuksalish payti.

Umuman, e'tibor bering-a, ezgu maqsadning birortasida shoshma-shosharlik, pala-partishlikni ko'rmaysiz: yangi biologik tajribalar so'kinlik, xotirjamlik talab etadi. Yangi farmon va qonunlar anqlikda qabul qilinadi. Islohotlar izchillik bilan yo'lga qo'yiladi. Kelgusi yuksak mamlarlarga ham qadam-baqadam chiqiladi. Tarbit, tahsil, intizom va shijoat taraqqiyotga tezroq eltuvchi sifatlar ekan, xom-xatala ish qilishdan nima foyda?

Aynan ilm-fan insoniyat sivilizatsiyasini yetaklab boradigan kuch ekanini hech kim inkor etolmaydi. Tarixning qaysidir bosqichida muayyan tamaddun o'z zamonasining eng buyugi bo'lgan bo'lsa, bunga hech bir istisnosiz ravishda faqat va faqat ilm-fan borasida boshqalardan ilg'or bo'lgani evaziga erishgan. Biz ham erishamiz. Ilm targ'ibotidagi sobitqadamlik va jur'at darajasini pasaytirmasak bas.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Azizbek YUSUPOV yozib oldi.

10-aprel — Abdulla Qodiriy tavalludi kuni



Eng avvalgi so'z

("So'z latofati" kitobidan)

Xoliqi olamning Bo'l degan so'zidan borliq yaralgan, inson bunyodga kelgan. Odamzod tilga kirib, u aytgan birinchi so'z nima edi? Bu savolga javob hech bir kitobda yo'q. Olimlar insoniyatning ilk so'zlari tovushga taqlidan paydo bo'lgan, deydi. Darhaqiqat, qadimgi ajdodlarimiz tog'dan shovullab tushgan suvni shovva, shar-shar to'kilganini sharshara degan. Qushlarning churq-churq qilgani chumchuq, lak-lak qilgani laylak (aslida, laklak), qag'illagani qarg'a bo'lgan. G'oz, chittak, chug'urchuq, chag'alay, olashaqshaq, kakku, g'ulg'ul tovuq (kurka), jibljajbon... sanoqni davom ettirish mumkin. Lekin qush nomlari ichida eng go'zali bul-bul deya yoqimli sayragan bulbuldir.



Qodiriy ma'rifati — O'ZLIKNI ANGLASH EHTIYOJI

O'zbek romanchiligi asoschisi Abdulla Qodiriy bemisl iqtidor sohibi bo'lgan. U nafaqat iste'dodli yozuvchi, balki shoir, dramaturg, hajvchi va tarjimon ham edi. Abdulla Qodiriy serqirra qobiliyatini, bor mahoratini vatan ozodligi yo'lida sarf etdi. U ijodini o'zlikni anglash, yurt manfaati va yorug' kelajagi uchun birlashishga bag'ishladi. Buning uchun sinovlardan, hatto jonini fido qilishdan qo'rqmadi. Ha, Qodiriy asarlarida haqiqat, milliy qadriyatlarini chuqur anglash, xalq orzu-niyatlarini yuksak darajaga ko'tarish bosh mezon bo'ldi. Bunday yuksak salohiyatli shaxslar mustabid tuzum uchun dushman hisoblanardi. Shu bois, Qodiriy siyosiy qatag'onning nohaq qurboni bo'ldi.



"Xalqaro birdamlik" tashkiloti vakillaridan biri, asli toshkentlik Vyacheslav Shatxov madaniyatimiz, adabiyotimiz, butun mamlakat tarixi va, albatta, uni yaratgan insonlar haqida qayg'uradigan odam. Sobiq huquqshunosning bunday fazilati tadbiridagi ma'ruzasida ham o'z isbotini topdi. U Abdulla Qodiriy adabiy merosini chuqur o'rganish va anglash muhimligini qayd etib, bunday dedi: "Buyuk adib, shoir, dramaturg va publitsist Abdulla Qodiriy o'tgan asrning chinakam fenomenal shaxsidir. U o'zbek adabiyoti tarixi va taraqqiyotida o'chmas iz qoldirdi. Yozuvchi ijodi yildan yilga ommalashib, xorijda ham e'tirof etilmoqda. Jumladan, 2019-yil dekabr oyida O'zbekistonning Vashingtondagi elchixonasida "O'tkan kunlar" kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi. Romanni amerikalik taniqli tarjimon va tadqiqotchi Mark Riz tarjima qilgan. U ilk bor ingliz tilida AQSHda nashr etildi".

Tadbirda O'zbekistonning BMTdagi vakolatxonasi maslahatchisi, "Mahalla AQSH", "Urush bolalari", "O'talar choyxonasi", "Dodalar choyxonasi" uyushmalari vakillari, ijodkor ziyolilar ishtirok etdi.

Ijodiy kechada "Xalqaro birdamlik" tashkiloti prezidenti Abba Priyeva, professor Shohista Maqsumova, Xurshid Qodirovning chiqishlari ham tinglandi.

Tadbir doirasida rejissyor Ravshan Asqarovning adib hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Qodiriy" hujjatli filmi premyerasi bo'lib o'tdi. Mazkur film O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi tomonidan Bosh prokuratura, shuningdek, "Shahidlar xotirasi" jamoat fondi hamkorligida yaratilgan. Film tarix fanlari doktori, professor, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi rahbari Baxtiyor Hasanovning 2020-yilda uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) nashr etilgan "Abdulla Qodiriyning eslab" kitob-albomi asosida suratga olingan.

Ushbu kitob-albomning Konrad Adenauer fondining (Germaniya) Markaziy Osiyo mintaqaviy vakolatxonasi ko'magida nashr etilgani ham Abdulla Qodiriy jahon hamjamiyati e'tirof etayotgan dalolat, desak mubolag'a bo'lmas.

Namoyishdan so'ng aksariyat ishtirokchilar film haqidagi taassurotlarini o'rtoqlashdi. Ular yuksak mahorat bilan yaratilgan bu asar yurtimiz tarixiga bir muddat qaytargani, o'sha davrga, odamlar va voqealarga film ijodkorlari nigohi bilan qarash imkonini berishini e'tirof etdi.

Qodiriy o'z asarlarida nafaqat milliy, balki umumbashariy qadriyatlarini tarannum etgan. Shu bois, uning ijodi hech qachon ahmiyatini yo'qotmaydi. Toki mustaqillik, inson qadri, xalq manfaatlarini, komil inson tarbiyasi va o'zlikni anglash ishtiyoqi bor ekan, ulug' adibning ijodiga ehtiyoj sezilaveradi.

Ana shunday ulug' adibning xalqaro maydonda tan olinishi, targ'ib qilinishi esa O'zbekistonning har bir fuqarosi, umuman, Abdulla Qodiriy ijodining butun dunyodagi chinakam muxlislari qalbidagi g'urur va iftixor uyg'otadi.

**Murod ZIKRULLAYEV,**  
Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi direktori o'rinbosari

1937-yil o'rtalarida O'zbekistonda ma'rifatparvar jaddichilik harakatining so'nggi vakillari, o'zbek ziyolilari, fan, adabiyot, san'at, tarix va madaniyat namoyandalari mahv etishga qaratilgan "katta qirg'in" kampaniyasi avj oldi. 1937-yil 31-dekabrda Qodiriy ham "xalq dushmani" sifatida hibsga olindi. "Uchlik" tomonidan unga nisbatan oliy jazo hukmi chiqarildi. 1938-yil 4-oktabrda yozuvchi Toshkentdagi Alavstiko'prik atrofidagi qatag'onda o'tildi.

Abdulla Qodiriy 1956-yilda reabilitatsiya qilingan ilk adiblardan biri edi.

Donishmandlarning "Tog'larning ulug'vorligini ko'rish uchun ularga uzoqdan razm solish darkor", degan hikmati bor. Muayyan ma'noda katta shaxslarning buyukligini, go'zal insoniy fazilatlarini ko'rish, noyob iste'dodi hosilasini baholash, qadrlash uchun ham shu tamoyil o'rinni bo'ladi. Abdulla Qodiriy ijodining buyukligi va naqadar qimmatli ekanini ko'rish va anglash uchun esa yarim asrdan ko'proq vaqt kerak bo'ldi.

Uzoq tanaffusdan so'ng uning "O'tkan kunlar" romani qayta nashr etildi. Xalqimiz bu kitobni o'z gacha mehriban va sog'inch ila qarshi oldi va u yashin tezligida tarqala boshladi. Shuning o'ziyoq Qodiriy ijodi insonlar qalbidan chuqur joy olganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, mamlakatimizda Abdulla Qodiriy shaxsi va ijodini keng targ'ib etish boshlandi. Ayniqsa, keyingi yillarda uning ko'plab asarlari qayta nashr etildi. Mustaqillik yillarida uning nomini abadiylashtirishga e'tibor qaratildi. Xususan, Abdulla Qodiriy "Mustaqillik" ordeni bilan taqdirlandi. Bugun Toshkent shahridagi markaziy ko'chalardan biri, Chorsu yaqinidagi madaniyat va istirohat bog'i, Yunusobod yo'nalishidagi metro bekatlaridan biri adib nomi bilan atalgan.

Yangi O'zbekistonda Qodiriy tom ma'noda ikkinchi umrini yashay boshladi. Zero, yoshlarni Qodiriy ma'rifati bilan oshno qilish, shu ruhda

kamol toptirishga alohida e'tibor berildi. 2019-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan Abdulla Qodiriy madaniyat va istirohat bog'i yonida Abdulla Qodiriy ijod maktabi va memorial muzeyi tashkil etildi. Adibning muhtasham haykali o'rnatildi. Shuningdek, yozuvchining Toshkent shahri Samarqand darvoza ko'chasidagi uyida uy-muzeyi ochildi.

Shu o'rinda yana bir faktini ta'kidlash zarur. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 8-oktabrdagi "Qatag'on qurbonlarining

merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi qabul qilindi. Unga asosan, mamlakatimizda qatag'on qurbonlari hayoti va faoliyatini chuqur o'rganish, xotirasini abadiylashtirishga doir ishlarini tashkil etish bo'yicha respublika ishchi guruhi tuzildi. Ishchi guruhning asosiy



vazifalaridan biri sifatida sho'rolar davridagi siyosiy qatag'on qurbonlarini reabilitatsiya qilish ekanini ko'rsatildi. Shunga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi tomonidan mustabid sovet tuzumi davrida qatag'onga uchragan, turli sabablarga ko'ra, shu kungacha nomlari oqlanmagan yurtdoshlarimizni rasman oqlash borasida salmoqli ishlar qilindi. Natijada 2021-2024-yillarda O'zbekiston Oliy sudi Sovet Ittifoqi davrida qatag'on qilingan 1220 nafar shaxsni reabilitatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qildi. Oliy sudning 2023-yil 1-dekabrda bo'lib o'tgan majlisida Abdulla Qodiriy ham to'liq oqlandi.

Quvonarli, Qodiriy ijodiy merosini xalqaro miqyosda e'tirof etish va uning o'lmas asarlariga qiziqish ham yil sayin o'tib bormoqda.

Nyu-Yorkda Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiga bag'ishlab o'tkazilgan ijodiy kecha ana shunday e'tiroflardan biri bo'ldi. Mazkur ijodiy kechaga qator millatlar vakillaridan iborat mehmonlar yig'ildi. Ularning maqsadi atrofida kechayotgan voqea-hodisalarni ongu shuuri bilan teran anglab, fikrlarini ijodi orqali qo'rqmasdan aytib olgan jasoratli, erksevar inson yashab ijod qilgan tarixiy davr muhitini his etish va undan o'ziga xos xulosalar chiqarish edi.



"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:  
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** — 446. 36811 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova  
Musahhih: Malohat Mingboyeva  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

Erkin VOHIDOV,  
O'zbekiston xalq shoiri